

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Qarshi Davlat universiteti**

**Tarix fakulteti 2 –kurs 21-guruh talabasi
Bo‘riyeva Nigoraning
“O‘zbekiston tarixi” fanidan yozgan**

KURS ISHI

Mavzu: “Shayboniylar davrida
Movarounnahrda madaniy hayot”

Bajardi:

Qabul qildi:

Bo‘riyeva N.

Karomov G‘.

KIRISH

Ma'lumki, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarida ta'lim va tarbiyaning insonparvar demokratik xarakterda ekanligi muhim tamoyil sifatida ko'rsatib o'tilgan. Shuni nazarda tutgan holda bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi ham o'ta dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Birinchidan O'zbekiston tarixi darslarida shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning qobiliyati va imkoniyatlarini to'liq namoyon etish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish uchun ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish, o'quvchilarning ongiga to'g'ri yo'l topa bilish muhim ahamiyatga ega. Vatan tarixining ilmiy tahlil va izchil yondashuvni talab qiladigan yo'nalishlaridan biri XVI–XVII asrlarda hukm surgan shayboniylar davlati tarixidir.

Ikkinchidan XV–XVII asrning boshlarida Movarounnahrda iqtisodiy tushkunlik va siyosiy porokandalikni vujudga keltirgan sabablar, shu davr tarixiy jarayonlarining salbiy oqibatlarini tegishli saboq bo'lib, mazkur voqealarni chuqur anglab, haqqoniy talqin qilish muhimdir. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixini yangi konseptual – metodologik asoslarda tadqiq etish, turli ilmiy muammolarni asl manbalarga tayangan holda tahlil etish muhim masalaga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan tarixiy – madaniy merosni o'rganish va targ'ib etish, ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quvchilarni komil inson darajasida tarbiyalashga katta e'tibor berilib, bu sohada ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Uchinchidan O'zbekiston tarixining muhim burilish nuqtasi hosoblanmish shayboniylar davrini ilmiy manbalar asosida tahlil etish fanimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. O'quvchilarga o'zbekiston tarixi fanini o'qitishda shayboniylar davri tarixining pedagogik asoslarini aniqlash hozirga qadar yaxlit ilmiy tadqiqot sifatida o'rganilgan emas. Bu esa mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Tariximizda Somoniylar, Gʻaznaviylar, Qoraxoniylar, Xorazmshoxlar, Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Mangʻitlar kabi sulolalar hukmronlik qilganini bilamiz.

Shu nuqtai nazardan olganda Shayboniylar davrining dolzarbligi shundan iboratki, biz bu davrni yanada muhimroq oʻrganmogʻimiz, oʻsha davrda hukmronlik qilgan xukmdorlar qilgan ishlarini chuqurroq tahlil qilmogʻimiz, ochilmagan, siru-sinoatlarni ochib bermogʻimiz darkor. Bizga maʼlumki, bir qator tarixchilarimiz Shayboniylar davriga oid bir qancha asarlar yozishgan. Jumladan, B. Axmedovning “Tarixdan saboqlar”, “Toʻrt ulus tarixi”, Z.M. Boburning “Boburnoma”, Abdulgʻozixonning “Shajarai turk”, M. Solihning “Shayboniynoma”, X.T. Buxoriyning “Abdullanoma” asarlari mavzuning yoritilishida muhim asarlar hisoblanadi.

1 . SHAYBONIYLAR DAVRIDA MOVORAUNNAHRDA IJTOMOIY IQTISODIY VA SIYOSIY AHVOL

1.1. XV asrning ikkinchi yarmida Dashti Qipchoq va Movoraunnahrdagi siyosiy ahvol

Balxash ko'li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan to Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan ulkan hudud XI asrdan boshlab Dashti Qipchoq deb atala boshlangan. XIV asr boshlaridanoq bu yerda mavjud bo'lgan Jo'chi ulusi ikki mustaqil davlatga Ko'k O'rda va Oq O'rdaga bo'linib ketdi. XIV asr 60 yillaridan boshlab Oltin O'rda taxti uchun Ichan, Shaybon va To'qay Temur avlodlari o'rtasida kurash kuchayib ketdi. 1360-1380 yillar davomida Oltin O'rda taxtiga 25 xon kelib ketdi.

XIV asrning 70 yillarida Oltin O'rda ichki kurashlar yanada keskinlashib ketdi. Bu kurashda Shayboniylardan Tulunbekaxonim, Ilbon, Alpjo'ja, Arabshoh, Kaonbeklar katta o'rin tutdilar. Oltin O'rda taxti uchun kurashlar kuchayib, tushkunlikka yuz tutgan bir vaqtda Oq O'rda davlati kuchayib bordi. Bu holatni biz Urusxon va To'xtamishlar xukumronlik qilgan davrda kuzatishimiz mumkin. 1380 yilda Oq O'rdaning birlashtirilishi To'xtamishning Amir Temur tomonidan qo'llab quvvatlanganligi ta'sirida amalga oshirilgan edi. Oltin O'rda Amir Temur tomonidan To'xtamishga qarshi kurashlar davomida ancha zayiflashtirilgan bo'lsada, Shodibek hukmronlik qilgan davrda 1401-1407 yana kuchaya boshladi. Shu yillarda Oltin O'rda Bulg'or, Xojitarxon, Qrim ustidan yana o'z hukmronligini o'rnatdi. 1406 yil Edigey tomonidan Xorazm bosib olindi. Bunga Temuriylar o'rtasida kuchayib ketgan taxt uchun kurashlar sabab bo'lgan edi.¹

XV asrning 1chi choragida Oltin O'rdada o'zaro siyosiy kurashlar yana kuchayib ketdi. 1400-1417 yillar davomida Oltin O'rda taxtiga o'tirgan 8 ta xon birin -ketin taxtdan tushirildi. (Shodibek, Po'latxon, Temirxon, Jaloliddin Sulton va boshqalar).

XIV asrning 80 yillaridan boshlab «o'zbek ulusi» yoki «o'zbeklar viloyati» deb

¹ Ahmedov B. "Tarixdan saboqlar". T., 1994 yil. b – 57.

nom olgan. Oq Oʻrdada ham taxt uchun kurashlar kuchayib ketdi. Bir necha 10 yillar davomida taxt uchun Toʻxtamish, Quyirchoq oʻgʻlon, Barakxon, Ulugmuhammad kabilar kurash olib bordilar. 1424-1425 yillardan boshlab esa bu kurashlarda Muhammadxon, Kichik Muhammad, Toʻxtamishning oʻgillari Davlatberdi va Kepakxonlar asosiy oʻrin tutadilar. Dashti Qipchoq uzoq vaqt davom etgan ana shu kurashlarda boshqa qabilalar bilan bir qatorda Shaybon avlodlari ham faol ishtirok etdilar va maʼlum bir mavqega ega boʻlib bordilar.

Oʻzaro kurashlardan koʻp qiynalgan halq uchun tinchlik nihoyatda zarur edi. 1427 yilda Alasha bahodir yordamida xon etib koʻtarilgan Abulxayrxon katta harbiy kuch toʻpladi va 1428 yilda oʻz ulusiga qaytib, qiyot, mangʻit, qoʻngʻirot, doʻrmon, qushchi, oʻtarchi, nayman, tuboyi, toymas, jot, korlik, ushun, kurlovut, echki, tangut, va boshqa qabilalar tomonidan ham xon etib koʻtarildi. Bunda Abulxayrxonni 200 dan ortiq urugʻ va qabila boshliqlari qoʻllab quvvatladilar. 1428 -29 yillarda koʻchmanchi oʻzbeklar Janubi-Gʻarbiy Sibirdagi Tura shahrini qoʻlga kiritdilar va bu shahar 1446 yilgacha Abulxayrxon davlatining poytaxti boʻlib qoldi. Abulxayrxonning bu muvaffaqiyati tezda butun Dashti Qipchokqa yoyildi va koʻpgina oʻgʻlonlar va sultonlar Abulxayrxon hizmatiga oʻta boshladilar. 1428-1431 yillar davomida olib borilgan kurashlar natijasida Abulxayrxon ilgarigi Shaybon ulusi yerlarini qaytadan birlashtirishga erishdi va oʻz davlatini Oltin Oʻrda (Koʻk Oʻrda) dan mustaqil deb eʼlon qildi. 1431-1432 yillarda Abulxayrxon Xorazm ustiga yurish qildi va uning shimoliy qismini temuriylardan tortib oldi. Biroq, bu yerda vabo tarqalgach, Xorazmni tashlab ketdi. Biroq, manbalarda Abulxayrxonning Xorazmni tashlab ketishiga sabab Shohrux tomonidan qoʻshin yuborilishi va Xojitarxon xoni Orol dengizi atrofida qochib yurgan Kichik Muhammadning oʻgʻli Maxmud va uning ukasi Axmadxon Abulxayrxonga qarshi kurash boshlab havf deb koʻrsatiladi. (Abdurazzoq Samarqandiy).

XV asr 40 -yillarda Abulxayrxon Sigʻnoq, Oqqoʻrgʻon, Arquq, Soʻzoq va Oʻzgand shaharlarini egalladi. 1448 yilda Samarqandni taladi.

Biroq Abulxayrxon qanchalik harakat qilmasin, davlatda" yagona, mutloq

hukmdor bo'lib qololmadi. Bunga ayniqsa, Urusxon nabiralari qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Abulxayrxon vafotidan so'ng (1469) esa, davlatda yana o'zaro kurashlar avj oldi va ko'chmanchi o'zbeklar davlati o'zaro kurashlar natijasida yemirildi. Bu davlatning qayta birlashtirilishi Abulxayrxonning nabirasi Muhammad Shayboniyxon (1451 - 1510) nomi bilan bog'liq.¹

Muhammad Shayboniyxon Abulxayrxonning o'g'li Budoq sultonning o'g'li edi, Otasidan yetim qolgach, Muhammad Shayboniyxon ukasi Maxmud Sulton bilan birga Abulxayrxon tarbiyasida bo'ladi. Keyinchalik temuriy amirlardan biri, Turkiston hokimi Muhammad Mazid tarxon homiyligida bir qancha vaqt Turkistonda yashadi. Turkiston urushlar girdobida qolgan bir vaqtda Shayboniyxon ukasi bilan Sulton Axmad Mirzo panoxida Buxoroda yashadi va ilm oldi. XV asr 90 -iillarida Muhammad Shayboniyxon Dashti Qipchoqqa bordi va siyosiy kurashlarga qo'shilib ketdi. U bir necha yil davomida kurash olib bordi va Toshkentdagi hukmdorlar yordamida Dashti Qipchoqda mustahkam o'rnashib oldi. Keyinchalik, Sayram va Yassini qo'lga kiritilgach, butun Turkistonda hokimiyatni qo'lga kiritdi. 1498 yilda Sulton Axmad Mirzo vafotidan so'ng Samarqandga yurish qildi, uni qo'lga kiritib olmagach, Qarshiga yurish qildi va Shahrisabz bilan birga talon -taroj etdi. 1499 yilda Samarqandda qilgan yurishi yana muvaffaqiyatsizlikka uchragach, Buxoroga yurish qildi va uch kunlik qamalidan so'ng uni qo'lga kiritdi. 1500 yilda Muhammad Shayboniyxon yana Samarqandga yurish qildi va uni bosib olib, to'rt oy davomida talon qildi. Bu Samarqandliklarning Shayboniyxonga qarshi qo'zg'oloni sabab bo'ldi va ular 19 yoshli temuriy shahzoda - Zaxriddin Muhammad Boburni xon qilib ko'tardilar. Bobur Qarshi va Guzorni ham qo'lga kiritdi. Biroq uzoq vaqt talangan halqning ahvoli juda ham nochor edi. Og'ir ahvolda qolgan Bobur qo'shinlari Zarafshon bo'yida Shayboniyxondan mag'lubiyatga uchradi va qamalda qolgandan so'ng yashirincha Toshkentga chekinishga majbur bo'ldi. Samarqandda, Buxoro va Toshkentda o'z hukmronligini qo'lga kiritgach, Shayboniyxun Xuroson yurishiga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Temuriylar garchi shahzoda Xusravshoh boshchiligida

¹ Muhammad Solih "Shayboniynoma". T., 1988 yil. b – 115.

Shayboniyxonga qarshi birlashgan bo'lsalarda, bu hech qanday natijaga olib kelmadi. 1505 yil Urganch ham bosib olindi va Xorazm Shayboniyxonga tobe bo'ldi. 1506 yil Xusayn Boyqaro vafotidan so'ng boshlangan taxt uchun kurashlardan foydalangan Shayboniyxon temuriylardan Hirotni tortib oldi. Hirot bosib olingan 1507 yil birin ketin Astrobod va Jurjon ham bosib olindi va Kaspiydan Xitoygacha, Sirdaryo etagidan Afg'onistonning markaziy hududlarigacha bo'lgan yerlar Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon hukmronligi ostiga o'tdi. Shayboniyxon hukmronligi o'rnatilishi bilan Movarounnahrda uzoq vaqt davom etgan temuriylar o'rtasidagi o'zaro taxt talashishlarga chek qo'yildi va tinchlik o'rnatildi. Shayboniyxon siyosiy jihatdan markazlashgan davlat tuza olishga erishi bilan o'zining ilm -fan va adabiyotga moyilligi, bu soha vakillarini hurmat qilishi va homiylik qilishi bilan katta hurmatga sazovor bo'ldi.

Shayboniyxon qo'lga kiritilgan hududlarni boshqarish uchun o'z yaqinlariga bo'lib berdi. Bu hol markaziy hokimiyatning zaiflashuviga olib keldi va 1510 yil Shayboniyxon Eron shohi Ismoil Safaviy bilan kurashga kirish oldidan ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ldi. O'z vaqtida yetib kelmagan qo'shinlar oz sonli Shayboniyxon qo'shinlarining (17000) Ismoil Safaviy qo'shinlari- (70000) , tomonidan Tahrirobod mavzesida mag'lub etilishi va Shayboniyxonning o'ldirilishiga olib keldi,

1510 yil Shayboniyxon vafot etgach, shayboniylar o'rtasida hokimiyat uchun kurashlar avj oldi. Ayni vaqtda Ismoil Safaviy ham shayboniylar davlati ichkarisiga hujum qilib kirib kelishga erishdi. Shayboniylar bu yurishni to'xtatish uchun sulhga rozi bo'ldilar va Amudaryoning sul qirg'og'idagi barcha yerlarni Eronga berishga majbur bo'ldilar.

1511 yilda Bobur ham o'z qo'shinlari bilan Amudaryodan kechib o'tib, Xisor, Qulob, Qunduz, Badaxshonni egalladi. So'ng Ismoil Safaviy yordamida Samarqandga yurish boshladi. Ubaydulla Sulton va Temur Sultonlar Turkistonga chekindilar. Samarqandni qo'lga kiritgan Bobur Ismoil nomiga xutba o'qitganidan norozi bo'lgan halq Boburga qarshi isyon ko'tardi va bundan foydalangan shayboniylar Boburni bu yerdan haydab chiqardilar. Ismoilning Boburga yordamga

yuborgan Amir Axmad (Najmi soniy) boshchiligidagi qo'shinlari esa qirib tashlandi (1512 y kuzida) va 1512 yil may oyida Samarqand yana shayboniylar qo'liga o'tdi.

Bobur esa Ismoil bilan ittifoqini tuzdi va 1525 yilda Hindistonga yurish qilib, u yerda Buyuk Boburiylar sulolasiga asos soldi.

Shayboniyxon vafotidan so'ng shayboniylar davlati taxtini Ko'chkinchixon (1510 -1530) va o'g'li Abu Sa'id boshqardilar (1530-1533).

Maxmud Sultonning o'g'li Ubaydulla Sulton hukmronligi yillarida (1533-1539) hokimiyat ancha mustahkamlandi. Poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chirildi. Ubaydullaxon davlatni mustahkamlash va eronliklarni mamlakat hududidan xaydab chiqarishga katta e'tibor berdi. 1512 yil kuzida u yajmi soniy ustidan g'alaba qozongach, katta o'ljaga ega bo'lgan edi va bu mablag'ni u Buxoro shayxulislomi Mir, Arabga topshirdi va bu mablag'lrga mashhur Mir Arab madrasasi qurildi. Shayboniylar orasida eng katta ta'sirga ega bo'lgan hukmdorlardan yana biri Abdullaxon II (1534-1598) edi. 1556 yil jo'ybor shayxlaridan Muhammad Islom yordamida taxtni egallagan Abdullaxon umrining oxirigacha davlat hududlarini kengaytirish va markaziy hokimiyatni kuchaytirish, iqtisodiy ahvolni va davlatning harbiy qudratini yuksaltirish borasida harakat qildi. Abdullaxonning say- harakatlari natijasida XVI asr oxirlarida Buxoro xonligi ulkan markazlashgan davlatga aylandi. Biroq, Abdullaxon vafotidan so'ng hukmronlik qilgan Abdulmo'min va Pirmuhammadxonlar(1599 -1601) davlatni boshqara olmadilar va ularning o'limidan so'ng shayboniylar sulolasi barham topdi.

Shayboniylar davlatida jamiyat hayotida, davlat boshqaruv tutgan o'rni va mavqeiga asosan bir nechta ijtimoiy tabaqalar mavjud edi: xon va uning yaqinlaridan iborat oliy tabaqa, harbiy amaldorlar yoki umaro, yirik din peshvolari -shayxlar, xojalar, olimlar, shoirlardan iborat fozillar, raiyat ya'ni oddiy fuqaro va kisman qullar.

Shayboniy xonlari tomonidan Movarounnahrda bir qator sohalarda islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar qisman ijobiy natijalar bersa, ayrimlari davlatning zaiflashuviga oqibatlariga olib , keldi. Shayboniyxon tomonidan joriy etilgan suyurg'ol tizimi eng yaxshi hizmat ko'rsatgan va Shayboniyxonga yaqin bo'lgan

amaldorlar yoki xon xonadoni vakillariga turli viloyatlar ustidan hukmronlik qilishga imkon bersada, biroq ular markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga intildilar va oqibatda bu hol ichki kurashlarni keltirib chiqardi. Bu salbiy holat Shayboniyxon Ismoil Safaviydan mag'lubiyatga uchrashida ham ta'sir ko'rsatgan edi. Shuningdek, Shayboniyxon yer egaligi va yer-suv sohasida 1507 yilda pul islohoti va keyinchalik ta'lim sohasida ham islohotlar o'tkazgan edi.

Dehqonchilik asosan lalmikor va obikor - sug'oriladigan yerlarda bo'lgan. Bug'doyning o'n ikki navi yetishtirilgan va boshqa an'anaviy ekinlar ekilgan. Dehqonchilik uchun qulay bo'lgan va hosildor yerlar yirik amaldorlar va harbiylar hamda din peshvolariga qarashli bo'lgan. Shayboniylar davlati ijtimoiy - iqtisodiy hayotida Buxoro yaqinidagi Jo'ybor qishlog'idan chiqqan Jo'ybor xojalar¹ katta ta'sirga ega edi. Ular siyosiy hokimiyat boshqaruv ishlariga ta'sir ko'rsatish bilan birga katta yer mulklariga ham etalik qilardilar. Shayboniylar davrida amalga oshirilgan islohotlardan biri qarovsiz yotgan yerlarni o'zlashtirishga ham qaratilgan edi. Chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Hunarmandchilikning 60 dan oshiq turi mavjud bo'lgan. Ichki savdoga katta e'tibor berilgan. Tashqi savdoda Turkiya, Eron, Hindiston, Rossiya, Xitoy kabi davlatlar bilan savdo aloqalari olib borilgan. 1588 yilda Buxoroda bo'lgan ingliz sayyohi Antoni Jenkinson ham o'z ma'lumotlarida Buxoro shahrida har yili yirik savdogarlar qurultoyi bo'lishi, bu yerga Hindiston, Eron, Balx, Rossiya va boshqa mamlakatlardan katta -katga savdo karvonlari kelishini yozib qoldirgan edi.¹

Shayboniylar davlatida 40 dan ortiq soliq va to'lovlar mavjud bo'lgan. Asosiy soliq turlari xiroj va zakot bo'lgan

XV asr boshlarida Shaybon ulusida ham feodal kurash keskinlashganligi va natijada bu ulus bir necha mustaqil uluslarga ajralib ketganligi qayd etilgan. Bu kurash va tartibsizliklar dastlab 1425-1426 yillarda mang'it ulusida yuz berdi.

Joytar xalqida qo'zg'olon ko'targan Mang'it amirlari burkut, nukus qabilasidan bo'lgan ko'chmanchilarni ham o'z tomoniga ag'darib olib, 17 ming kishilik qo'shin to'plab olishga muvaffaq bo'ldi. Jumaduxon qo'zg'olonchilarga

¹ Saidqulov T. "O'rta Osiyo xalqlari tarixi tarixshunosligidan lavhalar". T., 1993 yil. b – 57.

qarshi qo'shin tortdi. Lekin jangda mag'lubiyatga uchradi. Jumaduxxon qo'shinining ko'pgina boshliqlari shu jumladan, Jumaduxxonning o'zi ham asir olindilar va Mang'it boshliqlarining buyruqlari bilan qatl qilindilar. Bu jangda Jumaduxxon qo'shinining javonrig'iga qo'mondonlik qilgan yosh Abdulxayrxon ham asir olindi va Sariq Usmon tomonidan qamab qo'yildi.

Ma'sud ibn Usmon Qo'histoniyni yozishicha: "Sariq Usmon Abdulxayrxonni Shayboniylar naslidan bo'lganligini bilgach, o'z himoyasiga olgan va unga xayrihohlik bildirgan.

Oradan ko'p vaqt o'tmay uni safar anjomlari bilan taxlab, ta'minlab o'z ulusiga ketishiga ruxsat bergan.

Sariq Usmon Abdulxayrxonni Shayboniylar naslidan bo'lganligi uchun qo'yib yubormadi. Aksincha, bundan o'z manfaatini ko'zladi. O'rta Osiyolik ko'chmanchi xalqlar, ayniksa, o'sha zamondagi hozirgi Qozog'iston hududida ko'chib yurgan xalqlarning ongida "oq suyaklar" ga, ya'ni Chingizxon naslidan bo'lganlarga sig'inish kuchli edi. Bu nasldan bo'lgan o'sha vaqtda hokimiyat uchun kurashib yurgan xonlar, sultonlar ko'p bo'lib, yirik feodal Sariq Usmondek odamlar bular ichidan istagan kishisini tanlab olib qo'llab - quvvatlashi mumkin edi. Lekin, ko'chmanchi feodallar o'z manfaatiga xizmat qiluvchi xonlarni qo'llab-quvvatladilar. Sariq Usmon ham Abdulxayrxonni qo'llaganda shu maqsadni ko'zda tutdi. Shubxasiz, bu yerda Abdulxayrxon xokimiyatni qo'lga olgach Sariq Usmonga zo'r imtiyozlar beraman deb, so'z bergan. Shundan keyingina Sariq Usmon xonning zo'r iltifotlariga sazovor bo'ldi. Uning eng yaqin mulozimlari qatoridan o'rin oldi. Abdulxayrxon o'sha yili qo'llab-quvvatlagan Alasha Bahodir ham xonning zo'r iltifotlariga sazovor bo'ldi. Yuqori davlat mansablariga ko'tarildi.

Abdulxayrxon asirlikdan qutilib, o'z ulusiga qaytishida Shanvay minglab degan jilg'ada qishlaydi va kelasi yilning bahorida o'sha Alasha Bahodirning aymog'i orasiga kelib tushadi. A'sud ibn Usmon Qo'xistoniyni bu aymoq katta aymoqlaridan biri bo'lib, bu yerda Alasha Bahodir va uning aymog'idagi feodallar Abdulxayrxonga tobelik bildirdilar, - deb yozadi. Abdulxayrxon Alasha

Baxodirning yordami bilan kattagina harbiy kuch to'plab oldi va oradan ko'p vaqt o'tmay o'z ulusiga qaytib bordi. Bu yerda Qiyot, Mang'it, Do'rmon, Qushchi, O'tarchi, Joymon, Tuboiy, Toymon, Jot, Xitoy, Qarluq, Usun, Qurlovut, Echki, Tang'ut, Tomonlin, Qo'ng'iro't va boshqa ko'chmanchi qabilalarning boshliqlari hamda ruhoniylar, sultonlar, o'g'lonlar uni xon qilib ko'tardi. Bundan Abulxayrxonni Dashti Qipchoqdagi Turk mug'ul ko'chmanchi qabilalarining ko'pchiligi quvvatlaganligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Mahmud ibn Valining ko'rsatishicha, Abulxayrxonni xon qilib ko'tarishda ikki yuzdan ortiq sardor ya'ni qabila va urug'larning boshliqlari qatnashgan. Shubhasiz, qabilalar va uluslar o'rtasida tez-tez bo'lib turgan o'zaro urushlar shuningdek, ko'chmanchi ommaning feodal zulmga qarshi g'alayon ko'tarishi xavfi ko'chmanchi feodallarning xon atrofiga uyushishiga va mehnatkash ommani itoatda tuta oladigan markaziy davlat apparatini tuza oladigan darajada majbur etgan. Abulxayrxon davlati fikrimizni tasdiqlaydi. 1428-1429 yilda ko'chmanchi o'zbeklar Abulxayrxon boshchiligida Janubiy-G'arbiy Sibirdagi To'ra shahrini egalladilar. Shahar hukmdorlari Adabbek bilan Kepaklik shaharini hech qanday qarshilik ko'rsatmasdan Abulxayrxonga topshirdilar. Bu yerda Abulxayrxon nomiga xutba o'yilib pullar zarb qilina boshladi. To'ra shahri esa ko'chmanchi o'zbeklar davlatining poytaxti deb e'lon qilindi. 1446-yilga qadar shunday bo'lib qoldi. Abulxayrxonning bu dastlabki muvaffakiyatlari tez fursatda Dashti Qipchoq bo'ylab tarqaldi. Ko'pgina o'g'lonlar va sultonlar Abulxayrxon huzuriga To'raga kelib xizmatiga kirdilar. Bular orasida arab shoh avlodidan bo'lgan Baxtiyor Sulton ham bor edi. U to umrining oxirigacha Abulxayrxonning eng yaqin safdoshlaridan biri bo'lib uning qo'shiniga qo'mondonlik qildi.¹

1429 - yili Abulxayrxon yuqorida nomi zikr etilgan Maxmudxujaxonga qarshi qo'shin tortdi. Va uni Tobal daryosi bo'yida tor-mor keltirdi. Maxmudxo'jaxonning o'zi asir olinib Abulxayrxonning amiri bilan qatl etiladi. Uning o'rtasi bo'lsa tamoman talon-taroj qilinadi. Abulxayrxon Maxmudxo'jaxonning ulusini o'z ulusiga qo'shib oladi, so'ng To'raga qaytadi.

¹ Vamberi X. "Buxoro yoxud Mavorounnaxr tarixi". T., 1990 yil. b – 97.

Shunday qilib juda bir qiska vaqt ichida Abulxayxon ilgari mayda qismlarga bo'linib ketgan Shaybon ulusining katta bir qismini birlashtirishga va unda hukmronligini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi.

1431-1446 yillarning o'rtalarida Abulxon katta bosqinchilik urushlari olib bormadi. Bunga quyidagilar sabab buldi. Birinchidan: Iboqxon, Burkasulton, Oq o'rda xoni Baroqxonning o'g'illari Jonibek va Gerayixon singari ko'pgina sultonlar Abulxayrxonga tobe bo'lishdan bosh tortdilar va Abulxayrxon xokimiyat tepasiga kelgan birinchi kunlaridan boshlab unga qarshi kurash olib bordilar. Bular ichida eng kuchlisi Mustafoxon bo'lib uni mang'itlarning bir qismi qo'llab-quvvatlab turar edi. Shuning uchun ham Abulxayrxon o'sha yillar ichida ichki feodal kurash bilan band bo'ldi. Ikkinchidan, Abulxayrxon o'sha yillarda o'zbek ulusi chegaralarida ko'chib yurgan yana bir Shayboniy-Sayid Ahmad ayniksa, Axmadxonning kuchayib borayotganligidan cho'chir edi. Shu tufayli u mudofaa urushlariga xozirlanib turishga majbur bo'ldi.

XV asrning 40-yillarida Oltin O'rdada ko'chmanchi o'zbeklarga qo'shni bo'lgan Mug'ilistonda va Temuriylar davlatida feodal kurash nihoyatda kuchayib ketdi. Bu hol Abulxayrxon va ko'chmanchi o'zbeklarga Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan viloyatlarga bosib olish uchun yo'l ochib berdi.

Bundan tashqari 1446 yili Abulxayrxon o'zining eng kuchli raqiblaridan biri Mustafoxon ustidan g'alaba qozondi. Bu ham Abulxayrxonga xarbiy yurishlarini boshlab yuborish imkoniyatini berdi. Abulxayrxon bu qulay fursatdan foydalanib, 1446-yili Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan Sig'noq, Oqqo'rg'on, Arquq O'zgand va So'zoq shaharlarini o'ziga buysundirdi. Ko'chmanchi o'zbeklar Sirdaryo bo'yidagi yerlarni ishg'ol qilib, Temuriylar davlatining yon qo'shnisi bo'lib qoldilar va Movarounnahrning qishloq hamda shaharlarini tez-tez talon-taroj qilib turdilar. Bundan tashqari ular Temuriylarni toju-taxt uchun olib borgan o'zaro kurashlarida ham ishtirok eta boshladilar. Hokimiyat uchun kurashgan Temuriylardan goh unisini, goh bunisini qo'llab-quvvatladilar.

XV asrning 30-50 yillarida Abulxayrxon o'zbek ko'chmanchi feodallari va ayniqsa, Chingizi Sultonlarning separastik harakatlariga qarshi kurash olib

borishga majbur bo'ldi. U ayrim feodallarning xon hokimiyatiga qarshi chiqqanlarni shafqatsizlik bilan bostirdi. Abulg'ozixonning yozishicha, xon xokimiyatiga qarshi chiqqanlarning birontasi ham Abulxayrxonning qaxr-g'azabilan qochib qutulolmagan. Lekin, baribir Abulxayrxon ayrim sultonlarining qarshiligini sindira olmagan. Baroqxonning o'g'illari Gerayixon bilan Jonibek Sulton Xoji Muhammadxonning o'g'li Iboqxon, Yodgor Sultonning o'g'li Burka Sulton ishlar jumlasidandir.

Keyingi yillarda yuz bergan voqealarga qaraganda XV asrning 70-yillarida Iboqxon Edigey avlodidan bo'lgan Mang'it amirlaridan Muso Mirzo va Yomg'irchi bilan birikkan. O'sha yillarda Mang'itlar Iboqxonning tobeligiga o'tgan bo'lsalar kerak. Keyinchalik uni Qozon xoni deb ataganlar va Muxammad degan kishi tomonidan o'ldirilgan deb aytiladi. Iboqxonning qachon va qaysi yo'l bilan Qozonni olganligi haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Ma'lumki, 1481-yil yanvar oyining boshlarida Iboqxon yuqorida nomlari zikr qilingan Mang'it amirlari bilan birga Janubiy Ruso yerlarini talab qaytib kelayotgan Oltin O'rda xoni Axmadxonni Donesning Don daryosi bilan qo'shilgan joyida poylab turgan va uni shu yerda o'ldirgan. Shuning uchun ham Iboqxon Qozonni 70-yillar oxirida yoki 80-yillar boshida qo'lga kiritgan bo'lishi kerak, deb aytishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, Iboqxon juda katta hudud ustidan hukmronlik qilgan yirik Shayboniyxonlardan biri bo'lgan.

Burko Sulton bo'lsa, XV asrning 30-yillarida Dashti Qipchoqda bo'lgan voqealarga qaraganda Sirdaryoning Quyi oqimidagi yerlarda hukmronlik qilgan. Ma'sud ibn Usmon Qo'qistoniyni yozishicha Burka Sulton Abulxayrxonga tobe bo'lgan. Aslida esa u Abulxayrxon bilan dushmanlik maqomida bo'lgan sultonlardan biri edi. Masalan: u Abulxayrxon olib borgan urushlarning birontasida ham ishtirok etmagan. Abulxayrxon atrofida bo'lgan amirlarning to'liq ro'yxati keltirilgan "Tarixi Abulxayrxon" kitobida Burko Sulton tilga olinmagan. Faqat kitobning bir yerida ya'ni Ulug'bekning nabirasi Muhammad Juqiyning 1460-1461-yillarda Samarqand taxti uchun Sulton Abu Saidga qarshi kurashmoq uchun Abulxayrxonga yordam so'rab, murojaat qilganligi xon uning ixtiyoriga

Burka Sulton va Peshkada o'g'lon boshchiligida qo'shin berganligi aytilgan. Fikrimizcha, Burka Sulton Muhammad Juqiyning iltimosiga ko'ra, o'zi ixtiyori yordamga kelgan bo'lishi kerak.

Separatist feodallarning Abulxayrxon xukumatiga qarshi yana bir ko'chmanchi o'zbek xonlaridan Mustafaxon edi. Mustafaxon 1428-yilda Abulxayrxon bilan birikkan edi. Lekin To'ra shahri olinganidan keyin u yana xondan ajralib ketdi.

Ko'chmanchi o'zbeklar davlatida boshlangan feodal va toju-taxt uchun kurash bu - davlatni oxir oqibatida inqirozga uchratgan asosiy saboqlardan biri bo'ldi. Abulxayrxon davlatini inqirozga olib kelgan asosiy sabablardan yana biri - Ko'chmanchi o'zbeklar bilan Qalmoqlar o'rtasida 1457-yili Sig'noq yaqinida bo'lgan qirg'in-barot urush bo'ldi.

Qalmoqlar 1457-yilning bahorida o'z Temur Tayshi boshchiligida Sirdaryo bo'ylarida paydo bo'ldilar. Shu yili Sig'noqda ko'p ham olisda bo'lmagan Ko'k koshona yonidagi Nurto'qay degan joyda ko'chmanchi o'zbeklar mag'lubiyatga uchradilar. Qonli urushda ko'chmanchi o'zbeklarning Baxtiyor Sulton, Sulton Ahmad singari mard lashkarboshilari halok bo'ldilar. Abulxayrxon qolgang'qutgan askarlari bilan chekinishga va Sig'noqning mustahkam devorlari orqasiga bekinishga majbur bo'ldilar. Qalmoqlar bo'lsa Yassi, Toshkent, Shoxruxiyani talon-taroj qilib Chu vodiysiga qaytib ketganlar. Muallifi ma'lum bo'lmagan "Tavorixi guzida; nusratnoma" degan asarida O'z Temur Tayshi Abulxayrxonning nabirasi Muxammad Shayboniyxonning inisi uch yoshli Maxmud Sultonni o'zi bilan birga omonat tariqasida olib ketganligi va shaxzoda Qalmoqlar orasida yetti yil yurib qaytganligi haqida hikoya qilinadi.

Abulxayrxon vafot etganidan keyin ko'p o'tmay ko'chmanchi o'zbeklar davlati siyosiy inqirozga yuz tutdi. Abulxayrxondan keyin uning o'g'li Shayx Xaydarxon xon qilib ko'tarildi. Bu paytda Abulxayrxonning barcha dushmanlari birlashib Shayx Xaydarxonga qarshi kurash boshlaydilar. XVI asrning mashhur shoir va tarixchilaridan Kamoliddin Binoiyning yozishicha, Shayx Xaydarxonning hukmronligi uzoqqa bormagan, u taxtga o'tirgan birinchi kunlardanoq, ko'pgina

qabila va urugʻlarning boshliqlari unga boʻysunmay qoʻygan. “Tovarix guzida, nusratnoma”da ham xuddi shunday deyilgan. Binoiy Shayx Xaydarxonning feodallarning separatistik harakatlariga qarshi kurashishini batafsil talqin qiladi. Uning soʻzlariga qaraganda, Iboqxon, Burka Sulton, Jonibekxon, Mangʻit atirlaridan Yomgʻirchi va Muso Mirzo qoʻshilib Shayx Xaydarxonga qarshi urush ochgan. Lekin dastlab uni yenga olmagan. Keyin ular Oltin Oʻrda xoni Ahmadxon bilan ittifoq tuzib oxir oqibatda Shayx Xaydarxon ustidan gʻalaba qozonganlar. Shayx Xaydarxonning urushda xalok boʻlishidan keyin Iboqxon va uning ittifoqchilari qarindosh urugʻlari va tarafdorlarini qirgʻin qilganlar. Bundan faqat Muhammad Shayboniyxon uning inisi – Muhammad Sulton, Abulxayrxonning oʻgʻli Suyunchixojaxon, Koʻchkinchixon va yuqorida nomi zikr etilgan Baxtiyor Sultonning oʻgʻillari Mahdiy Sulton va boshqa bir necha qarindosh urugʻlari beklar hamda mulozimlar qochib qutilganlar.¹

¹ Ibrohimov A. “Biz kim oʻzbeklar”. T., 1999 yil. b – 45.

1.2. Shayboniylar davrida Movoraunnahrda madaniy taraqqiyot uchun shart-sharoitlarning vujudga kelishi

Shunday qilib, ko'chmanchi o'zbeklar davlati inqirozga uchradi. Lekin bu davlatning inqirozi vaqtincha bo'lib, oradan ko'p vaqt o'tmasdan XV asrning 80-yillarida Muhammad Shayboniyxon bu davlatni qayta tiklaydi.

Abulxayrxondan keyin bu parchalanib ketgan saltanatni qayta tiklash va yanada ulkanroq davlatga aylantirish uchun hech bir hukmdor harakat qilmadi. Qabilalarni birlashtirishga urinmadilar.

Muhammad Shayboniyxon bir qancha tarqoq qabilalarni birlashtirdi. Abdulxayrxonning o'limidan keyin Shayboniylar xonadonidagi ichki ziddiyatlar sabab sulola zaiflashishiga qaramay Muhammad Shoxbaxt davriga kelib Shayboniylar yana bir bor qadrlarini tiklashga ega bo'ldilar. Muhammad Shoxbaxt Abulxayrxonning Shohbudog' nomli o'g'lidan tug'ilgan nabirasi bo'lib, biz uni asosan Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) nomila yaxshi bilamiz.

Abulxayrxon davlatining inqirozga uchrashiga quyidagilar sabab bo'ldi:

O'troq aholi bilan ko'chmanchi aholi o'rtasida mustahkam iqtisodiy aloqalar yo'q edi. Ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga kirgan G'arbiy viloyatlar Volga bo'yidagi shaharlarga Sharqiy viloyatlar esa Movarounnahrda tortim edi;

Qabilalar o'rtasida ham mustahkam aloqalar yo'q edi;

Ko'chmanchi feodallarning mustaqilligi kuchli bo'lgan holda markaziy davlat apparati nisbatan kuchsiz edi;

O'rda, Ichin, Shaybon va To'qay Temur avlodlari o'rtasida toju-taxt uchun feodal kurash benihoya katta edi;

XV asrning o'rtalariga kelib Movarounnahrda Temuriy shaxzodalar o'rtasida toju-taxt kurashi kuchayib ketdi. Samarqand taxtiga Ibrohim Sultonning o'g'li Abdullo Mirzo o'tiradi. Buxoroda podsholikka ko'tarilgan Mironshohning o'g'li Abu Said unga raqib sifatida maydonga chiqadi. U ko'chmanchi o'zbeklar xoni Abulxayrxondan yordam so'raydi va juda ko'plab yerlar berishni va'da qiladi. 1451-yilning yozida Samarqand atrofidagi Sheroz qishlog'ida Abdulla Mirzo hamda Abu Said Mirzo o'rtasida qattiq jang bo'ladi. Bu jangda Abdulla Mirzo

magʻlubiyatga uchraydi va halok boʻladi. Abulxayrxon yordamida Abu Said Mirzo Samarqand taxtini egallaydi. Shu tariqa Movarounnahr xokimi boʻladi. Abu Said Mirzo davlatining chegaralarini kengaytirish niyatida edi. U avvalo Xurosonni egallashni maqsad qilib qoʻygan edi. Xuroson taxtida bu paytda Abulqosim Bobur Mirzo Samarqand hukmdori Abu Said Mirzoga qarshi yurish qiladi. Bu yurish muvaffaqiyatli amalga oshmagach, ikki oʻrtada sulh bitimi imzolanadi. 1457-yili Abulqosim Bobur Mirzo toʻsatdan vafot etadi. Abu Said Mirzo bunday qulay vaziftdan foydalanib, Hirotni egallaydi va Temuriylar davlatining ikki qismini yana birlashtirdi. Abdullatif Mirzoning oʻgʻillari Axmad va Muxammad Joʻchi Mirzolar ham taxt uchun kurashni boshlab, Abu Said Mirzoga juda katta xavf tugʻdiradi. Bular oʻrtasidagi jang 1455-yil Balx yaqinida boʻlib oʻtadi. Bu jang Abu Said Mirzoning gʻalabasi bilan yakunlanadi. Jangda Axmad Mirzo vafot etadi, Muhammad Joʻychi Mirzo qochib qutiladi. U koʻchmanchi oʻzbeklar xoni Abulxayrxondan yordam soʻraydi. Bu haqda Abulgʻozi shunday yozadi:

“Abdullatif Mirzoning oʻgʻli Muhammad Joʻchi qochib Abulxayrxonga borib turar, Abulxayrxonning xotini Abdullatif Mirzoning singlisi ekandur.

Muhammad Joʻchining ammasi bir necha vaqt xon eshigida turgʻon soʻng Movarounnahr din bir kishi borib turur. Sulton Abu Said Mirzo Samarkand din otlanib Xurosonga ketdi. Andin nari Mozondarangʻa ham borurman deb bu soʻzni eshitkandan soʻng Mirzo Muhammad Joʻchi bizdan koʻmak iltimos qilib turur. Xon Berka Sultonni chaqirib aytib turur. Mirzo Muhammad Joʻchi bizdan koʻmak soʻrayturur. Mening – oʻgʻlonlarimni va yaqin ishlarimda bu ishni boshqarutek kishi yoʻq. Sen mening oʻgʻlimsen. Oʻz cherigingdin bilan otlan. Men ham cherik qoʻshayin. Birka Sultonning soʻzini qabul qilib Muhammad Joʻchi Mirzoni oʻttiz ming kishi birlan otlanib Toshkent kelib turur. Otasindin va oʻzidan qolgʻon Abu Said Mirzodin Joʻchi Mirzogʻa keldilar. Andin Toshkentga borib kirdi. Andin Shoxruxiyani borib oldi”¹.

Muhammad Joʻchi Mirzo shu yerda vafot etdi. Abu Said Mirzo tez orada Joʻrjon, Seyiston, Kirmon, Afgʻoniston va Eronning katta territoriyalarini bosib

¹ Abulgʻozixon “Shajarachi turk” 116-bet

oldi. Qora quyunli Turkman sulolasining vakili Xasan Ali Abu Said Mirzo gʻuzuriga kelib, Uzun Xasan bilan boʻladigan urushda unga yordam berishini soʻradi. Abu Said Mirzo katta qoʻshin bilan Marvdan harakat boshlab, Ozarbayjonga yoʻl oldi. 1469-yilda Qorabogʻda uning qoʻshinlari Uzun Xasan bilan boʻlgan toʻqnashuvda magʻlub boʻldi. Abu Said Mirzo Samarqand taxtini qoʻldan boy beradi. Abu Said Mirzo toʻqnashuvda asirga olinadi va qatl etiladi. Shu yili Xusayn Boyqaro Xuroson taxtini egalladi va 1506-yilgacha hukmronlik qildi. Abu Said Mirzo Samarqand taxtini oʻzi tiriklik vaqtidayoq katta oʻgʻli - Sulton Ahmadga bergan edi. Fargʻonani yana bir oʻgʻli Umarshayx Mirzo boshqarar edi. Bu davrda ham Temuriy Mirzolar oʻrtasida toʻqnashuvlar boʻlib turdi. Sulton Axmad Mirzo Toshkentni egallash maqsadida Umarshayx Mirzo ustidan qoʻshin tortdi. Umarshayx Mirzo ham qaynotasi Yunusxon koʻmagiga ishonib oʻz qoʻshini bilan Sirdaryo yoqasiga keladi. Bu yerda unga Sayramdan yoʻlga chiqqan qaynotasi Sulton Mahmud ham raxbarligida mugʻullar qoʻshini kelib qoʻshiladi. Endi jang boshlanay deb turgan vaqtda oraga oʻsha davrning eng nufuzli din arbobi Xoʻja Nasriddin (Xoja Axror) tushib qon toʻkilishiga yoʻl qoʻymaydi.

Sulh bitimi tuzilib unga binoan Toshkent Sulton Mahmudxonga beriladi. Lekin bu sulh uzoqqa bormaydi. Umarshayx Mirzo va Sulton Axmad Mirzo Sulton Mahmudxonga qarshi urush boshlaydi. Dastavval Umarshayx Mirzo Toshkentga yurish boshlab, Xavos qalʼasini egallaydi. Lekin Sulton Mahmudxondan akasi Sulton Axmad Mirzodan magʻlubiyatga uchrab Andijonga qaytib ketadi. Bu voqea 1487-yil boʻlib oʻtadi. Oradan bir yil oʻtgach, Sulton Axmad Mirzo Toshkentga yurish boshlaydi. Chirchiq boʻyidagi jangda Sulton Mahmudxon Samarqand qoʻshiniga jiddiy shikast yetkazdi. Sulton Axmad Mirzo juda koʻp odamni yoʻkotib, qochishga majbur boʻldi. 1494-yilda Sulton Ahmad Mirzo inisi Umarshayx Mirzoga qarshi yurish boshlaydi. Toshkent xoni Sulton Mahmudxon ham Fargʻonani egallash uchun yurish boshladi. Ayni shu paytda Umarshayx Mirzo fojiali xalok boʻladi. Bobur bu haqda shunday yozgan edi: “Bu asnoda Gʻarb voqeʻ dast berdi, mazkur boʻlib edikim, Axsi qoʻrgʻoni baland jar ustida

voqe' bo'lubtur, imoratlar jar yoqasida edi. Ushbu tarixda Dushanba kuni Razamon oyining to'rtida Umarshayx Mirzo jardin Kabutar va Kaburxona bila uchib, shunqor bo'ldi"¹.

Taxtga uning o'g'li 12 yoshli Bobur Mirzo o'tiradi. Sulton Axmad Mirzo qo'shini Quva yonida daryodan o'tishda ko'prik sinib ketib katta talofat ko'radi. Askarlarning ko'pi suvga cho'kib ketadi. Buning ustiga ot ulati boshlanib, otlar tappa-tappa yiqilib jon berayotganini ko'rgan lashkar dilidagi vahima o'rnini qo'rquv egallaydi. Shu sababdan ham Sulton Axmad Mirzo, Bobur Mirzo bilan sulh tuzib, orqaga qaytishga majbur bo'ldi. Sulton Mahmudxon boshliq mo'g'ullar qo'shini Axsini qamal qildi. Qanchalik urinmasin Axsini olishga qurbi yetmadi. Axsilik ximoyachilarning matonat bilan jang qilayotganini ko'rgan Sulton Mahmudxon ham orqaga qaytishga majbur bo'ldi. Andijon yurishidan qaytayotgan Sulton Axmad Mirzo O'ratepa qo'rg'oni yaqinida Oq suv degan joyda to'satdan vafot etadi.

Sulton Axmad Mirzoning o'g'li bo'lmaganligi sababli taxtga uning inisi Maxmud Sulton o'tiradi. Ammo uning hukmronligi uzoqqa bormaydi. U xokimiyatni olti oy ham boshqarmasdan to'satdan vafot etadi. Sulton Mahmudxon o'rniga 1495-yili Samarqand taxtiga ikkinchi o'g'li Boysung'ur Mirzo o'tiradi. Movarounnahrdagi vaziyat keskinlashgan yillar ayni shu zamonda ro'y bergan, desak to'g'ri bo'ladi. Zero, mahalliychilik avj olib Samarqandlik va buxorolik beklar Boysung'urni Xisorlik beklarga yon bosganlikda ayblab, oliy taxtga uning ukasi Sulton Alini (1483-1501) o'tkazish payiga tushadilar. Mazkur qarama-qarshilikka din peshvolari ham aralashadilar. Vaziyatning nechog'liq murakkab bo'lganini shundan ham bilib olsa buladiki, Xoja Axror avlodlaridan Muhammad Xojani Boysung'urni yoqlasa Xoja Yaxyo Sulton Ali tomonida edi. Bobur ta'biri bilan aytganda, "Xazrati Xoja Ubaydullo (Axror) avlodining orasida bu sababdan taassuf tushdi, ulug'i – ulug'iga murabbiy bo'ldi, kichigi-kichigiga muqavviy"¹ bo'ldi. Bir so'z bilan aytganda mamlakat nafakat siyosiy jihatdan ham ikkiga

¹ Z.M. Bobur "Boburnoma"

² O'sha asar. 36-bet

bo‘linadi. Boshqa tomondan esa Xuroson hukmdori Sulton Xusayn Xisor va Qunduzga intilishini kuchaytiradi. 1496-yili Samarqand taxti atrofidagi mazkur mash-mas’halar xabari Farg‘onaga ham yetib boradi. Bu yerda esa otasi o‘limidan so‘ng xokim maqomida Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) faoliyat boshlagan edi. Bu haqda uning o‘zi shunday yozgan edi: “(Xabar) kelgach biz ham Samarqand davosi... o‘q cherik otlanduk”¹. Boshqacha aytganda Samarqand taxti uchun ya’ni bir da’vogar kupaydi.

Boysung‘urning akasi Sulton Ma’sud (1475-1506) bilan ittifoqqa kirgan Bobur 1497-yili Samarqandni qamal qiladi. Boysung‘ur yordam so‘rab Turkistonga (Yassiga) odab yuborib, Muxammad Shayyuoniyxonni da’vat qiladi.

Paytdan foydalangan Muxammad Shayboniyxon tezlikda lashkar tortib kelgan bo‘lsa-da, ammo so‘nggi pallada Boysung‘ur aynib uni qabul qilmaydi. Muxammad Shayboniyxon tezlikda lashkar tortib keladi. Boysung‘ur ham Samarqandni tark qilgach, shu yili Bobur ilk bor Samarqandga kirib taxtni egallashga muvaffaq bo‘ldi. Ammo bu yutuq uzoqqa cho‘zilmay tez orada Bobur o‘zi yo‘qligida Andijonni egallab olgan raqiblari bilan kurashish uchun Farg‘onaga jo‘nashga majbur bo‘ldi. Bir so‘z bilan aytganda, Temuriylar xonadonida boshbodohlik avjiga chiqqan, mahalliy beklar mavqe oshib rasmiy sulolani tan olmay qo‘yganlar. Bunday sharoitda Muxammad Shayboniyxon uchun Samarqandga intilish tabiiy bir xol edi. Kamoliddin Binoiy shu munosabat bilan temuriylar o‘rtasida qarama-qarshilik ortib borayotganidan bu sulolaning umri tez orada bitishini bildi deb yozgandi¹. Haqiqatdan ham kuchga to‘lib kelayotgan Muxammad Shayboniyxonning mo‘ljali to‘g‘ri chiqadi.

1500 yilning qishini Shayboniyxon urush hozirligi bilan o‘tkazdi. U qish ichida Qorako‘l qal’asini Abul Muhsin Mirzodan tortib oladi. G‘uzor va Qarshini qamal qilib olishga muvaffaq bo‘lishga ulguradi. Vabo boshlangach u yerdan qochdi. Tez orada Dabusiya qal’asi xon qo‘liga o‘tdi.

Shayboniyxon yana Samarqandni egallash uchun yurish boshladi. Bobur va Shayboniyxon o‘rtasida jang 1500-yilda Samarqand yaqinida Sariko‘l degan joyda

¹ “Boburnoma” 37-bet

bo‘lib o‘tdi. So‘nggi jang juda qisqa va bag‘oyat dahshatli bo‘ldi. Ikki qo‘shin bir-biriga jadal yaqinlashib kelayotib, kutilmaganda Shayboniyxon Bulon g‘orining uchi Bobur Mirzo asakarlarini aylanib o‘tib, orqadan siquvga ola boshladi. Bobur Mirzo o‘sha zaxoti askarlarini orqaga yuz o‘girtirdi. Buning oqibatida shunday bo‘ldiki, jang ko‘rgan yigitlardan tuzilgan Qirovul o‘ng qo‘lda - jang markazidan chetda qolib ketdi. Bobur Mirzo qo‘shini jon holatda jang qilib, g‘anim Barong‘orini g‘o‘ma tiqa boshladi.

Buni ko‘rib Shayboniyxonning tajribali sarkardalari “Xujumni kuchaytirish kerak, to‘xtab emas, chopib jang qilish kerak” – deb jangga maslahat beradi. Ikki tarafdin siquvga olingan Bobur Mirzo askarlari tutday to‘kila boshladilar. Ko‘chmanchilarning temuriylar qo‘shinini yengishda juda qo‘l kelgan jang uslubi bor edikim, Shayboniyxon uni bu jangda uni ham ustalik bilan qo‘lladi. Bu to‘lg‘ama edi. To‘lg‘ama ichida qolganlarning omon chiqishi qiyin edi. Bobur jangda yengilib ozgina lashkari bilan Samarqand qal‘asiga qochib kirdi. Shayboniyxon tezda shaharni qamal qildi. Shahar axli uchun qamal oylari juda og‘ir kechdi. Qamalning to‘rtinchi oyi tugab, beshinchi oyi boshlandi. Shayboniyxon qo‘shinining bir to‘dasi Qarshi bilan Kesh tarafga yo‘l oldi. Qamalni davom ettirish uchun katta o‘lja ko‘p zahira kerak edi. Xon qoshida juda oz askarlar qolganidan xabar topgan shayxul islom odamlari Bobur Mirzoni g‘animga to‘satdan xujum qilish imkoniyatini qo‘ldan chiqarmaslikka da‘vat qildilar. Bunday qulay vaziyatdan foydalanmoq zaruratini Bobur Mirzo ham tushunardi.

Muhammad Solihning yozishicha: “Ming kishilik yaqin odam qurollanib tashqariga chiqdilar. Temur Sulton, Xamza Sulton, Sulton Bahodir, Maxmud boshchiligidagi dushman ularga qattiq zarba berdi. Qamalning oltinchi oyida qamalchilarning ko‘pchiligi shahardan qocha boshladilar. Shayboniyxon Boburga sulh tuzishni taklif qildi. Sulhning birinchi talabiga ko‘ra, Shayboniyxon Boburning opasi Xonzodabegimni xotinlikka so‘ragan edi. Ikkinchi talabiga binoan Bobur shaharni tark etishi kerak edi. Shayboniyxon Boburni shahardan eson-omon chiqarib yuborishga va‘da berdi. Bobur bu haqida shunday yozadi:

“Zarurat bo‘ldi, sulh guna qilib kechadin ikki pakr yovulib edikim, Shayxzoda darvozasidan chiqildi. Volidam xonimni olib chiqdim, yana ikki xotun kishi chiqti. Biri Birka xalifa edi, yana biri Minglik Ko‘kaltosh edi. Mening egachim Xonzodabegim ushbu chiqqonda Shayboniyxonning iligiga tushdi”¹.

Bobur Samarqanddan chiqib ketgach, Shayboniyxon shaharni egalladi. 1501-yili qishida Shayboniyxon Shoxruxiya va Pskent qal’alarini egalladi. Toshkent xoni Sulton Mahmudxon Andijonni bosib olish uchun Sulton Axmad Tanbal bilan urush olib borayotgan edi. Mana shu to’s-to‘polondan foydalangan Shayboniyxon O‘ratepani qo‘lga kiritdi.

Shu fursat Andijon taxtini qo‘lga kiritgan Sulton Axmad Tanbal Shayboniyxon huzuriga og‘asi Bektalbani yuborib itoat izhorini qildi va xon xokimiyatini Qur‘on ustida tan olganini ma’lum qildi. Bu xabarni olgan Shayboniyxon Tanbalga o‘z nishonlarini yubordi.

Sulton Mahmudxon Shayboniyxonga ko‘p yordamlar berganini aytib, uning bu xatti-xarakatlaridan noroziligini bildiradi. Shayboniyxon Sulton Mahmudxon maktubini olib sulh tuzishga rozi bo‘ldi. Biroq bu kelishish vaqtincha ekanligini har ikkala tomon ham bilardi. Shayboniyxonga sulh tuzish Xorazmni qo‘lga kiritish kerak edi. Xorazmga yuborilgan qo‘shinga xonning inisi Sulton Mahmud boshchi bo‘ldi. U yoniga Ubaydulloxonni ham qo‘shib oldi. Xorazm o‘sha yili - 1502-yilda zabt etildi.

Shayboniyxon Samarqand, Buxoro va ularga tobe bo‘lgan yerlarda o‘z mavqeni mustahkamlab olgandan keyin Xuroson va Amudaryoning so‘l sohilidagi boshqa viloyatlarni tasarrufiga kiritib olishga qaror qildi. BIRinchi navbatda u Amudaryoning yuqori oqimida uning ikki sohilida joylashgan ulkan hududga hukmronlik qilayotgan va unga jiddiy ravishda tahdid solayotgan Xusravshoxning yo‘q qilishga axd qildi.

Xusrav shox katta harbiy kuchga tayanib va Shayboniyxonning O‘ratepaga yurish qilishidan foydalanib, ellik ming kishilik lashkari bilan Xisordan chiqib

¹ Z.M. Bobur “Bobrunoma” 85-bet

yurish boshladi. U mashhur Temur darvoza mavzedan o'tib Qarshi ustiga otlandi. Lekin yo'lda uning qo'shinlari tarqalib ketgan va Xusrashoh orqaga qaytishga majbur bo'lgan. Keyinchalik u Xisordan ham qochib Ayvoch degan yerda Amudaryoning o'ng sohiliga o'tib Arxang mavzeda Balx xokimi Temuriy Badiizzamon lashkari bilan birlashgan. Shayboniyxonning qo'shinlari Xusravshohni Arxangacha ta'qib etib bordi. Va boy o'lja bilan qaytdilar. Shayboniyxon sovuq bo'lganiga qaramay Xusravda qoldi va Xisori shodmon qal'asini qurshab oldi. Uzoq davom etgan qurshov vaqtida Xisori Shoxmonga Xurosondan madad kuchlari yetib keldi. Biroq ular kutilgan natijasini bermadi. Amir Vali Xusravshohning buyrug'i bilan 80 ming kishilik qo'shini bilan bu yerda hozir bo'ldi. Biroq qo'lidan bir ish kelmay mahlubiyatga uchrab qochdi. Mazkur jangda Amir Vali tomonidan turib urishdan Muhammad Xusayn Ko'ragonning ko'p amirlari va askarlari xalok bo'lib o'zi Oloyga u yerdan esa Farg'ona tog'lariga qochadi. Biroq o'shanda Toshkent xokimi Sulton Mahmudxon mavqeining kuchayishi natijasida Shayboniylar Xisor va Badaxshonda mustaxkam o'rnasha olmadilar. 1503-yilning bahorida Shayboniyxon Toshkentni bosib olish uchun yurish boshlaydi. Sulton Mahmudxon jangda mag'lubiyatga uchrab inisi Sulton Ahmadxon bilan asirga tushadi. Shayboniyxon xonlarni avf etib, ularni ozod qilib yubordi.

1503-yilning noyabr oyida Kerki degan yerga Amudaryodan kechib o'tib osonlik bilan Antihudni qo'lga kiritib oldi va Balxni qamal qildi. Badiizzamon esa Shayboniyxon Amudaryoning so'l sohilida paydo bo'lishidan ancha ilgari Balxni tark etib shahar mudofaasini o'g'li Muhammad zamon Mirzo vaziri Xoja Jaloliddin va boshqa amirlarga topshirib o'zi Jo'z darasaida o'rnashib oldi. U yerda u Sulton Xusaynning ko'rsatmasiga muvofiq ish yuritgan bo'lsa kerak. Chunki, masalan: Bobur Mirzo Sulton Xusaynning o'ziga Badiizzamon va Xusravshohga yo'llagan nomasi haqida so'zlab jumladan, shunday deyilganligini aytadi: "Sulton Axmad Mirzo va Ulug'bek Mirzo og'a ishlar ittifoq qilib yurganda men Murg'ob yoqasini berkitdim. Mirzolar yovuq yotib hech ish qila olmay yondilar. Agar o'zbek mutavvajjiq bo'lsa, men Murg'ob daryosini berkitay. Badiizzamon Mirzo

– Balx va Shobirgʻon hamda Antihud qoʻrgʻonlariga mazbut kishilarini quyub oʻzi Goʻrvon va Darayi zangda u Qoʻhistonni berkitsun. Sen Kohmard Ajarda ul Kuhpolni berkitib Xusrav shoh Xisor va Qunduz qoʻrgʻonlarida eʼtimodiy kishilarni qoʻyub oʻzi va inisi Badaxshon va Xatlon togʻlarini berkitsunlar. Oʻzbek ish qilolmay yongʻusidur”¹ Shayboniyxon Balxni qamal qildi. Lekin uni ololmadi va qoʻshinlarni Movarounnaxrga olib ketishga majbur boʻldi. Bunga sabab Andijonda Sulton Axmad Tanbal Shayboniyxonga qarshi isyon boshladi. Shayboniyxon qoʻshinlari bilan Andijonni qamal qildi, qattiq janglardan keyin shahar egallanib, Sulton Ahmad Tanbal ogʻa-inilari bilan qatl etildi. Andijonga Jonibek Sulton xokim etib tayinlandi.

Shayboniyxon 1504-yilning bahorida Xisorga yurish boshlagan. Lekin hech qanday qarshilikka uchramay uning poytaxti Xisori Shodmonni egalladi. Bagʻlon, Qunduz va Badaxshonni zabt etish uchun u Mahmud Sulton va Muhammad Temur sultonlarni yubordi. Xusravshoh ularning xujumiga dosh berolmay Qunduzni oʻz xoliga tashlab oʻsha paytda Farxor qalʼasiga joylashgan Mirzo Boburning panohiga qochib bordi. Shayboniylar sipohi oʻshanda Arxang va Badaxshonning katta qismini fath etdi. Ilgari Xusravshohga tobe boʻlgan viloyatlarni Shayboniyxon oʻz yaqin qindoshlari oʻrtasida taqsimlab berdi. Masalan, Qunduz, Bagʻlon va Badaxshonni zabt etilgan qismini inisi Mahmud Sultonga, Xisorni Xamza Sultonga, Chagʻonyonni Mahdiy Sultonga inʼom etdi.

Xusravshoh haqida gapiradigan boʻlsak, u Qunduzni qamal qilishga otlanib shahardan ikki yagʻoch naridagi Xoja Chortoq degan yerni qarorgoh qildi. Qunduz xokimi Qamarbiy Soli saroyga Xamza sulton huzuriga yordam soʻrab chopar yubordi. Xamza Sulton Qunduzga koʻp sonli lashkar bilan Matlab Sulton va Mamoq Sultonni yubordi. Oxir-oqibat Xusravshoh magʻlubiyatga uchrab asir olindi. Uni shahar koʻchalari va bozorlaridan sharmandai-sharmisor qilib olib oʻtdilar. Soʻng boshini tanidan judo qildilar.

1505-yilning qishida boshlangan Xorazm qamali xuddi Samarqand qamalidek olti oy choʻzildi. Xorazm xokimi Chin Soʻfi mardona jang qildi.

¹ Z.M. Bobur “Boburnoma” 117-bet

Lekin Shayboniyxon oltinchi oy boshida yetib kelgan yangi kuchlar yordamida uni yengishga muvassar bo'ldi. Xon Xorazmni Kupakbiyga berib o'zi Samarqandga qaytdi. Bobosi saltanatining asosi bo'lmish yerlarni birin-ketin egallab zo'rayib borayotgan Shayboniyxonning harakatlari Xuroson xukmdori Sulton Boyqaro ko'ngliga g'ulg'ula soldi. U Shayboniylarga qarshi chiqishga ahd qildi.

Shayboniyxonning Balxga qarab yo'lga chiqqanini eshitib, jangga otlangan Xusayn Boyqaro 912-yilning Zulhijja oyida – 1506-yilning 5-mayida yo'lda qazo qildi. O'sha yilning noyabrida Balx to'rt oylik qamalidan keyin Shayboniyxon qo'lga o'tdi. Sulton Xusayn o'zining to'ng'ich o'g'li Badio'zzamonni valiaxdlikka belgilagan edi. Biroq uning qazosidan so'ng Hirot saroyida nufuzli o'rin tutgan Xadichabegim – o'lgan Mirzoning bevasi xiyla-yu nayranglari bilan o'z o'g'li Muzaffar Mirzoni taxtga o'tkazdi. “Badiuzzamon Mirzo bilan Xusayn mirzo Hirot taxtida Bashirkat podshoh qildilar”¹.

1507-yilning may oyida Shayboniyxon katta qo'shin bilan Xuroson poytaxti Hirotga yurish boshladi. Qorabog'da bo'lib o'tgan janglarda Ubaydulla Sulton va Muxammad Temur Sulton temuriylar qo'shinini tor-mor etdi. Badiuzzamon Hirotga kirmay Qandahorga qarab qochdi.

Muzaffar Xusayn esa jang payti shaharga yetib shayxul islom Sayfiddin Axmad Taftozoniyning bog'iga qo'ndi. O'sha zaxoti u o'z huzuriga qozi Ixtiyoriddin boshliq shahar mudofaasini tashkil qilishda ko'mak so'radi. Ammo chaqirganlar bunga ko'nmaganlardan so'ng, badbaxt shaxzoda Astrobodga qarab qochdi. Shayboniyxon boshchiligidagi ellik ming kishilik qo'shin tez orada Hirot yaqiniga yetdi. Hirotning ko'zga ko'ringan ayonlari shahar kalitlarini xonga topshirdi. Shunday qilib, 1507-yil may oyining oxirida Hirot egallanib Shayboniyxon nomiga xutba o'qildi.

1507-1508-yillarda Shayboniyxon Jom, Marv, Mashhad, Sabzavor va Damg'onni qo'lga kiritdi. Xon yangi zabt etilgan yerlarni o'z farzandlari, birodarlari va sultonlarga bo'lib berdi. Hirot – Jonvafobiya, Marv –

¹ Z.M. Bobur “Boburnoma” 165-bet

Qubiznaymanga, Balx – Xorazmlik Sultonshohga, Xisor atrofi bilan Mahdiy Sulton va Hamza Sultonlarga, Qunduz – Ahmad Sultonga, Toshkent – Suyunchxo‘jaxonga, Axsi – Jonibek Sultonga, Andijon – Mahmud Sultonga, Xorazm – Qushchi Kupakbiyga, Turkiston – Ko‘chkinchixonga berildi.

Buxoro va Qorako‘l noibligi Shayboniyxon ukasi Sulton Mahmudga butun mamlakatning javohiri Samarqand bilan Kesh va Miyonka Ayolliy bilan birgalikda o‘g‘li Muhammad Temur saltanatiga berildi. Biroq Movoraunnahr bilan Xuroson mulkining yangi egasi bo‘lmish Muhammad Shayboniyxonning har bir harakatini ziyraklik bilan kuzatib turgan shaxs allaqanchalar tarix sahnasida mavjud edi. Bu shaxs juda yoshligidayoq Shirvonshoh taxtini keyin esa Eron taxtini qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘lgan shoh Ismoil (1510-1524) edi.

XV asr oxiri XVI asr boshlarida nafaqat Turkiston balki Eronda ham katta siyosiy o‘zgarishlar yuz beradi. Chunonchi, G‘qrbiy Eronda xokimiyatga yangi siyosiy kuch - Safaviylar (qizil boshlar) keladi. Garchi manbalarda Safaviylarning (1501-1732) kelib chiqishi haqida turlicha talqinlar mavjud bo‘lsa-da, (masalan: Safaviylar sulolasi nasabini arablar, kurtlar, turklar bilan bog‘lash hollari bor), ammo bir narsa fanda aniq, ya‘ni Safaviylar kichik Osiyo va O‘rta sharqdagi muayyan bir turkiy harbiy-siyosiy kuchlarga suyanganlar. Ular ko‘magida xokimiyatga kelganlar, ular yordamida xokimiyatni boshqarganlar¹.

Ularning qizil boshli deyilishiga sabab – bosh kiyimlarining qizil rangda bo‘lganligidandir. Zero, Kichik Osiyo qavmlarining XIII – XIV asrlardayoq Qizil quloq kiyib, yurganliklari ma‘lum.

Shayboniyxonning Movoraunnaxr-u, Xurosonni qulga kiritishi shoh Ismoil uchun navbatdagi urush ular o‘rtasida bo‘lajagini bildiradi. Keyingi voqealar shoh taxminini isbotladi. Shoh Ismoil davlatida har bir masjidda shia imonlarining nomi xutbaga qo‘shib o‘qitilishi qonun kuchiga kirgan edi. Shayboniyxon esa sun‘iy mazham tarafdori sifatida bunday shakkoklikka tezroq barham berilishini aks

¹ Farrux Sumer. Safaviy davlatining barpo bo‘lishi va rivojlanishida anadolu turklarning roli. Anqara 1992-yil. b -42

xolda urush boshlagini aytib Shohismoilga tahdidli maktublar jo'nata boshladi. Shayboniyxon o'z maktublariga Safaviylar hukmdorligida o'ziga tobe sultonlarga murojaat qilganidek, bepisand tarzda undan Makkaga borib tavba qilib, kaytishini o'z nomini xutbaga qo'shib o'qitishini o'ziga loyiq sovg'alar hozirlab xuzuriga bosh egib kelishini talab, iddaoli ko'rsatmalar berardi. Shoh Ismoil bu maktubni javobsiz qoldirgan, shekilli Shayboniyxon buni uning zaifligiga yo'yib qo'l ostidagi keng mamlakatni yanada kengaytirish payiga tushdi. Xurosonning janubidagi shafqatsiz o'zbek o'rduasi Qandahorning nariga tarafiga kechib o'tdi. Shu tariqa xirmon ustiga xujumga hozirlik ko'rilayotganiga Shoh Ismoil xujumini to'xtatish qasdi bilan javob berdi. Sufiga Kashkul va Hassa yuborib quyidagi maktubni yozdi: "Bu hodisalarni qabul et, ular sening otangdan qolgan meros alomatlaridir. Ammo menga kelganda men o'zimning ulug' mashhur bobom Chingizxondan meros qilich bilan xokimiyat oldim. Agar sen o'zingning tilanchilik davoidan rozi bo'lmasang o'z-o'zingdan o'pkala".

1509-yilning Shoh Ismoil g'azabga to'la bir maktub bitib Shayboniyxonga jo'natdi. Maktubda pand-nasihat kor qilmagani uchun xonning tazirini qilich zarbi bilan berib qo'yish lozim deb topilganini ma'lum qildi. Ammo maktub junatishga, jo'natib o'zi qulay vaziyatni kutdi. Shunday qulay vaziyat haqida xufiyalar xabar keltirdi. Ulardan Shayboniyxon qo'shinining asosiysi Dashti Qipchoqdagi Qozoq va mug'ul xonlari bilan jangu-suronni ovora ekanligini xonning o'zi rahbarlik qilayotgan qo'shin esa Feruzqo'zi qabilasining isyoni sababli Janubga harakat qilishdan to'xtaganligini eshitishi bilan Shoh Ismoil Qizil boshlar qo'shinini boshlab Xuroson sarhadlariga bostirib kirdi. Shoh Ismoilning bosib kelayotganini eshitgan Muhammad Shayboniyxon Marvga ketdi. Shayboniyxon Movoraunnaxrga choparlar yuborib, sultonlarni qo'shinlari bilan tezda kelib yetishini aytdi. Lekin, sultonlar o'z vaqtida yetib kelmadi. Bunga sabab Shayboniyxon Sultonlarni o'zboshimchaliklari uchun vazifalaridan chetlashtirilgan edi. Jumladan, Ubaydullo Sulton Buxoro xokimligidan, Jonibek Sulton Andijon xokimligidan va – Ko'chkinchixon Turkiston xokimligidan olib tashlangan edi.

Qo'shinlarida bu sultonlarning ta'siri kuchli bo'lib, ular xonning bu siyosatidan norozi edilar.

Shoh Ismoil Marv qo'rg'onida qamalib olgan Shayboniyxonni xiyla bilan qal'adan tashqariga chiqardi va uning qo'shiniga jiddiy shikast yetkazdi. Mana shu jang so'ngida bo'yniga o'ralgan qilich ziyoni bilan o'zbeklar hukmdori xalok bo'ldi. Bu voqea 1510-yilning 6-fevralida sodir bo'ldi.

Abu Tohirho'ja "Samariya" asarida yozishicha, Shayboniyxonning o'g'li Muhammad Temurxon otasining murdasini keltirib o'z xotini Mahdiy Ulyaxonim soldirgan madrasa hovlisida tuproqqa topshiradi. Shundan buyon bu madrasa Shayboniyxon madrasasi nomi bilan atala boshlandi.

Shunday qilib, Muhammad Shayboniyxon Eron bosqinchilariga qarshi tengsiz janglarda dinimiz yo'lida qahramonlarcha xalok bo'ldi. U boshlab bergan sulola tariximizda Shayboniylar sulolasi nomi bilan ataldi.

Muhammad Shayboniyxon o'limidan so'ng taxtga Abdulxayrxonning o'g'li Ko'chkinchixon (1510-1530) marhumning amakisi chiqardi. Garchi u rasman 20 yil mamlakatni boshqargan bo'lsa-da, ammo sulola ichida mavjud ba'zi bir qarama-qarshiliklar sabab, Shayboniylar Muhammad Shayboniyxon zamonidek qat'iy ichki va tashqi siyosat yurgiza olmaganlar.¹

Shoh Ismoil Hirotni olgach, Badaxshon, Qobul, Qandaxorni ham egalladi. Tez orada Shayboniylar va Eroniylar o'rtasida sulh bitimi tuzildi, unga binoan Amudaryoning chap tomoni Eroniylarniki, qilib belgilandi. Sulh natijasida Xuroson Shayboniylar qo'lidan ketdi. Bobur - Movoraunnaxrni egallash uchun shoh Ismoil bilan ittifoqlashdi. Bobur 1511-yili xon Mirzo ibn Sulton Mirzoni shoh Ismoil huzuriga yubordi. U bilan hayrihoxlik, itoatkorlikni ifodalovchi ariza ham yuboriyu yordam so'radi. Shoh Ismoil Bobur Mirzo iltimosini ortig'i bilan bajarib o'z askarlaridan xon Mirzoga hamroh qildi. Mirzo qo'shin bilan Xurosonga yetib keladi. Bobur bularning yordamiga tayanib Xisor ustiga qo'shin tortdi. Xisorni boshqargan Xamza Sulton va Mahdiy Sulton dushmanlarning kelishlaridan ogoh bo'lib bu xodisani ma'lum qilish uchun Samarqand va Buxoroga odam yubordilar.

¹ Ahmedov B. "O'zbekiston tarixi manbalari". T., 2001 yil. b – 68.

O'zlari esa dushmanga qarshi chikdilar. Surxob daryosining so'l irmog'i obi Hingov ustiga qurilgan bo'sh Sangin deb atalgan Tosh ko'prik ustida bu 2-qo'shin to'qnashdi. Bobur bu jangda g'alaba qilib Xamza Sulton Mahdiy Xisor mamlakatini bosib oldi.

Bobur Mirzo Samarqandga kirgan kuniyoq shoh Ismoilning shoh Ismoilning qat'iy talablaridan birinchisini bajardi – Samarqanddagi Jome' masjidida o'n ikki Shia imomlarining va shoh Ismoilning nomi xutbaga qo'shib o'qitildi. Bobur Mirzoning Samarqand jome' masjidida o'n ikki shia imomi nomini xutbaga qo'ydirib o'qitishi Samarqandliklar orasida norozilik uyg'otdi. Ikki o't – Vatan mehri va taxt da'vosi o'rtasida qolgan Samarqand bilan Buxoro oralig'ida ot choptirib yurib o'zbek sultonlari hujumlarini qaytirish o'z mavqeini mustahkamlash uchun qanchalik urinmasin qilgan xatti-harakatlarini mahalliy xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi.

Bobur Mirzo Turon saltanati poytaxtiga qizilboshlilar vasalli sifatida kirganidan norozi bo'lgan Samarqand kazo-kazolari xususan, Shayboniyxonga yaqin kishilardan bo'lmish Xo'ja Nizom boshchiligidagi odamlar Ubaydulloxonning Samarqandga kelishini so'raydi. Ko'li Malikda Ubaydullo Sulton, Temur Sulton, Jonibek Sulton boshliq Shayboniylar qo'shini bilan Bobur o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Bu jangda Bobur mag'lubiyatga uchrab, Xisorga chekinadi. U yana Shoh Ismoil huzuriga odam yuborib undan yordam so'raydi. Shoh Ismoil uning iltimosini yerda koldirmaydi va o'zining bosh amiri Najmi Soniy boshchiligidagi 80 ming qo'shinni yordamga jo'natadi. Bobur Mirzo mana shu amir boshchiligidagi qo'shin bilan dastlab Qarshi shahrini qamal qiladi. Najmi Soniy qo'shni Ubaydulloxon va Jonibek Sulton Karmana atrofida Ko'chkinchixon bilan Temur Sulton boshliq boshqa o'zbek sultonlari Miyonkolda edilar. Miyonkoldan yo'lga chiqqan Temur Sulton va Abu Saidxon ildam yurib, G'ijduvon qal'asiga kirib uni istexkomga aylantirdilar. Najmi Soniy qo'shini yetib kelib qal'ani qamal qiladi. Qarshi shahri egallanib aholisi qilichdan o'tkaziladi. Bu jangda Shayboniylarning qo'li baland kelib Eroniylarni mag'lubiyatga uchratadi. Najmi Soniy jangda o'ldiriladi. Sakkiz oylik Bobur xokimiyatidan keyin

Samarqand yanak Shayboniylar qo'liga o'tadi. Bobur xavfni qaytarishda Muxammad Shayboniyxonning jiyani Ubaydullo Sulton jonbozlik ko'rsatadi. Umuman, olganda, xuddi mana shu sulton oliy taxtga o'tirganga qadar Shayboniylarni ichki va tashqi siyosatga e'tiborga molik tadbirlarni amalga oshirolmaganlar. 1530-yilda Ko'chkinchixon vafot etadi. Vafotidan keyin 1530-1533 yillarda Ko'chkinchixonning o'g'li Abu said xukmronlik qiladi. 1533-yili uning vafotidan so'ng oliy xokimiyatga ya'ni Movoraunnaxr taxtiga Ubaydullo keladi. Shunda ham osonlik bilan emas, chunonchi poytaxt Samarqandda o'rnatish olgan Ko'chkinchixon avlodlari uning shaharga kirib, rasm bo'yicha taxtga chiqishiga to'sqinlik qilganliklari sabab Ubaydullo Buxoroda Oliy hukmdor deb e'lon qilinadi.

Demak, poytaxt ham o'sha yoqqa ko'chadi. G'ayratli va uddaburon Ubaydulloxon (1533-1539) mamlakat ichkarisida tartib o'rnatishda va ayniqsa Xurosonda Movoraunnahrning ilgarigi mavqeini mustahkamlashda ko'p tadbirkorni amalga oshiradi. Ubaydulloxon davrida Eronga va Xorazmga bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirildi. Hirot, Mashhad kabi shaharlar ham egallanib keyinchalik qo'ldan ketdi. Bu davrda Sultonlarning o'zboshimcha xarakatlariga barham berilib mustahkam davlat boqaruvi joriy etildi. Ubaydulloxon vafotidan keyin Movoraunnahrda feodal tarqoqlik kuchaydi. Xokimiyat tepasiga Ko'chkinchixonning o'g'li Abdullaxon (1539-1540) keladi. Lekin Abdullaxonning xukmronligi 6 oydan oshmaydi. U vafot etgach, mamlakatda qo'sh xokimiyatchilik boshlanadi. Buxoroda Ubaydulloxonning o'g'li Abdulazizxon (1540-1550) Samarqandda Shayboniy sultonlarning xokimiyat uchun kurash shu qadar kuchayib ketadi. Bu vaqtda Toshkent va Turkistonda Navro'z Axmadxon (1551-1556), Karmana va Minkolda Abdullaxonning otasi Iskandarxon (1561-1583), Balxda Pirmuxammadxon (1557-1561) Nasaf viloyatida Abdullaxonning amakivachchasi Qilich Qora Sulton, Xisor va Badaxshonda Shayboniyxonning nabirasi Burxon sulton (1550-1556) mustaqil xokim edilar. Oliy hukmdor sifatida rasman Abdulloxon II ning amakisi Pirmuhammadxon,

1561 yili esa otasi Iskandarxon e'lon yilingan bo'lsa-da, ammo amaldagi siyosat tuguni Abdulloxon II ixtiyorida edi¹.

Rasmiy xon sifatida esa u faqat 1583 yili ya'ni otasi o'limidan so'ng oliy taxtga chiqadi.

Abdulloxon II so'nggi 20 yil davomida siyosiy boshbadoqlik natijasida parchalangan mamlakat qilib, bu yo'lda ko'p va muvaffaqiyatli, shu bilan birga mashaqqatli harakatlarini amalga oshirgan buyul siyosiy davlat arbobidir. U Samarqand, Shaxrisabz, Farg'ona, Toshkent, Xorazm, Termez kabi viloyatlarni poytaxt Buxoro atrofida birlashtirish yo'lida harbiy-siyosiy tadbirlarni ruyobga chiqaradi. Bu siyosatning murakkabliligi nechog'lik bo'lganini shundan ham ko'rsa bo'ladiki, 1578-yili ya'ni faol siyosat yurgiza boshlaganidan 20 yil o'tganidan keyin ham Samarqand, Xorazmni poytaxt ixtiyorida saqlab qolishdek yumushlarini bajarishga majbur bo'lgan. Xorazmni Markaziy xokimiyat doirasiga kiritish uchun - uch marotaba uringan va oxiri maqsadiga 1596- yilda o'limidan 2 yil burungina erishganini olaylik. Xullas, mamlakat siyosiy yaxlitligiga erishish oson kechmagan.

Abdullaxon II Amir Temurdan so'ng Dashti Qipchoqqa nisbatan qat'iy siyosat yurgiza olgan yagona va so'nggi davlat arbobi hisoblanadi. Chunonchi, u 1582-yili mazkur yo'nalishda Buxoro xokimiyatini tiklash niyatida harbiy yurish uyuushtirib, ulug' toqqa (hozirgi Qarag'anda viloyatining g'arbida Sariq suv daryosining shimolida joylashgan tog'lik) boradi. Manbalarda shu munosabat bilan qiziq ma'lumot bor. Abdullaxon II ulug' toqqa yetib borgach, tog' tepasidagi bir minorada bitilgan quyidagi so'zlarga ko'zi tushadi: "Tarix yetti yuz to'qson uchinda qo'y yili, yozning ora oyi Turon Sultoni, Temurbek ikki yuz ming cherik bila To'xtamishxon yurtiga intiqom uchun yurdi. Bu yerga yetib, belgi bo'lsin deb bu minorani qurdirdi. Tangri nusrat bergay, inshoollox Tangri el kishiga rahmat qilg'ay, bizni duo bilan yod qilgay"².

¹ Hofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma" 1-jild 139, 299-betlar.

² Abulg'ozzi Bahodirxon "Shajarai turk" 143-bet.

Mazkur bitiklar 1391-yili Amir Temur To‘xtamishxonga qarshi lashkar tortgan kezi shu tog‘ ustiga chiqib be yerda bir minora qurdirib unga yozdirgan xotira so‘zlari edi. Abdullaxon II Sohibqiron haqida duolar o‘qittirib, o‘zi ham Qarshi tomonda minora qurishga buyruq beradi va unga “Kimki bu manzilga qadam qo‘ysa, xayrli duo ila yod aylasin” degan so‘zlarini uydirtiradi” Mazkur guvohliklar Abdullaxon II ning Amir Temur davri Turon zamin shuhrati va qudratini tiklash niyatini nechog‘lik baland bo‘lganligidan dalolatdir. Firkimiz isboti sifatida Abdullaxon II ning 1563-yiliyiq Shayboniy Ko‘chkinchixonga lashkar berib uni Sibir xonligida xokimiyatga kelishida qo‘llab-quvvatlaganligi hamda Sibir xonligining Buxoro bilan yaqindan siyosiy, iqtisodiy va diniy aloqalarda bo‘lganligini keltirish mumkin. Agar biz, Abdullaxon II ning 80-yillarda Xurosonda, ayniqsa uning markazlari Hirot, Mashxadda 90-yillarda esa Seyiston Garmsir va Xilmant daryosigacha bo‘lgan yerlarda Buxoro xokimiyatini o‘rnatgani Qandaxorga qamal qilganini nazarda tutsak, u xolda biz Abdullaxon II davrida ulug‘ tog‘dan Xilmant daryosigacha, Sibir daryosidan Mashhadgacha bo‘lgan xokimiyat – Buxoro qo‘l ostida birlashganini guvohi bo‘lamiz. Bunday natijaga Amir Temurdan so‘ng Abdullaxon II erishdi.

Abdulloxon II 1598-yili 65-yoshida vafot etdi. Umrining so‘nggi yillarida u o‘g‘li va valiy ahdi Abdulmo‘min (1568 yilda tug‘ilgan) bilan biroz qarama-qarshilikda bo‘lgani ma‘lum. Aniqrog‘i manbalarda berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra Shayboniylar orasida mardlik, shijoat, benazir Abdulmo‘min otasidan oliy taxtni talab qila boshlaydi. Yuqorida aytilgan Iskandarxon rasman oliy xukmdor bo‘lsa-da ammo amaliy ishni Abdulloxon II ning o‘zi bajarganini vaj qilib olgan Abdumo‘min niyatidan qaytmay oliy taxt uchun ochiqchasiga bo‘lmasa ham har holda ko‘p uringan. Lekin, tez orada otasining kuni bitib, 1598-yili u rasman xonlik kursiga o‘tiradi.

Abdulmo‘min o‘z mavqeini mustahkamlash yo‘lida taxtga da‘vogarlik yillarida otasi tomon bo‘lgan ba‘zi amallarni qatl ettirdi. Bu bilan ham cheklanmay xatto Shayboniy shahzodalarni ham ayamaydi. So‘ng esa saltanat ishlariga kirishib, avval shu yili Toshkentda yuz bergan Shayboniy sultonlar isyonini bostiradi.

Keyin Xurosonda o'z mavqeini mustahkamlash yo'lida yo'lga chiqaradi. O'sha davr tarixchilarining guvohlik berishicha, Abdulmo'min qiziqqon, cho'rtkesar shaxs bo'lib, otasi davrida xuzur halovat va taqvoga o'rganib qolgan Buxorolik bir qator beklarning payiga tushgan. Ular buni sezib mazkur Xuroson yo'lga chiqqan O'ratepa va Zomin oralig'iga yetgan. Abdulmo'minga qarshi suiqasd uyuushtirib uni o'ldirganlar. Taxtga so'nggi Shayboniy hukmdor Pirmuhammadxon chiqadi. Oradan 2 yilcha vaqt o'tib, 1601 yili Samarqand xokimi Boqi Muhammad taqdiri bilan birga umuman Shayboniylar sulolasi taqdiri hal bo'ladi. Zero, Boqi Muhammad boshqa bir sulola – Ashtarxoniylar sulolasi edi. Demak, 1601 yili mamlakatimiz siyosiy sahnasiga yangi sulola - Ashtarxoniylar sulolasi chiqadi.

Shunday qilib, 1500-1601 yillargacha Movoraunnaxrda xukmronlik qilgan Shayboniylar sulolasi hukmronligiga barham berildi.

Shayboniylar davri – davlat boshqaruvi masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, oliy – davlat idorasi dargoh hisoblangan. Uning tepasida Oliy hukmdorlar – xon turgan. Oliy hukmdorlik otadan bolaga emas, balki suloladagi eng ulug' yoshdagi namoyondaga o'tishi tartibi dastlabki Shayboniylar davrida saqlangan bo'lsa-da asosan XVI asrning 40-yillaridan boshlab sulola ichidagi ommaviy an'ana ustun chiqqan boshlagan. Abdullaxon II davriga kelib esa bu halokat aniq bir shaklga tushgan. (Bu yerda rasmiy xokimiyatni Iskandarxon o'g'li Abdullaxonga va Abdulloxondan Abdulmo'minga o'tganini nazarda tutmoqdaman).

Dargohdagi xondan keyingi muhim davlat vazifasi - naqib xisoblangan. Tarjimada sardor, boshliq, yetakchi ma'nosini beruvchi naqiblik mansabi amalda ancha keng mazmun va vakolatga ega bo'lgan. Naqib xonning eng yaqin va ishonchli kishilaridan hisoblangan. Rasmiy qabul marosimlarida uning oliy xukmdorlaridan chap tomonidan birinchi bo'lib joy olishi Naqibning dargohda tutgan yuksak maqomidan dalolatdir. Xonning farmon, yorliqlarida ham Naqib nomi birinchi bo'lib zikr etilgan.

Davlat ahamiyatiga molik mansablardan yana biri Otaliqdir. Nomidan ko'rinib turibdiki, Otaliq qilmoq, otasining o'rnini bosmoq mazmunini beruvchi

mazkur lavozim Markaziy xokimiyatning viloyatlardagi siyosatini belgilashda katta ahamiyat kasb etgan.

Oliy Hukmdor chiqargan hukmlar, yorliqlar va boshqa rasmiy xujjatlarni o'z egalariiga yetkazish tartiblariga parvonachi javobgar bo'lgan. Urush paytlarida esa ular harbiy yetakchilik vazifalar bilan ham shug'ullangan.

Dargohga tushgan arizalarni qabul qilish ularga javobini berish hamda mamlakatdagi ijtimoiy adolat tartiblariga rioya qilishning nazorati kabi yumushlariga Dargoh mutasaddi edi. Shuningdek, u elchilarni qabul qilish, hatto shaxsan elchi sifatida boshqa mamlakatlarga borib kelishini amalga oshirgan.

Dargohdagi yana bir muhim lavozimlardan biri bu – Ko'kaldosh hisoblanadi.

Ular Oliy xukmdorlarga va rasmiy sulolaga eng yaqin kishilardan bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda, mazkur maqom vazifasi mamlakatda Oliy hukmdor olib borayotgan siyosiy daxlsizligi unga kishilarning munosabati bilan bog'liq yumushlardan iborat bo'lgan.

Sulola ichki munosabatlariga oid tadbirlar, chunonchi, oliy hukmdor bilan shahzodalar o'rtasidagi aloqalarni tashkiliy tartibi asosida yo'lga qo'yish ishini – Xon yasovuli olib borgan.

Dargohdagi haqsizlik, tartib keldi-ketdidan xabardorlik kabi tadbirlar – Eshik og'asi kabi ichki taqsimotlari bo'lgan bu xizmat vakillari urush paytlarida oliy xukmdorlarning eng muhim harbiy topshiriqlarini ham bajarib borganlar. Dargoh faoliyatida katta mavqega ega lavozimlardan yana biri – Shayxulislom bo'lib, davlat va mafkuraviy xayotda uning o'rni favqulodda edi.¹

Shayboniylar davridagi devonlar tizimi haqida fikr yuritish bir oz mushkulroq. Xofiz Tanish Buxoriy guvohliklariga ko'ra, Devonbegi mamlakatning muhim ishlaridan Moliya, Soliq, Yer, Suv masalalari, viloyatlar bo'ylab amaldorlarga ish tafsimlash, mansablarga tayinlash va bularning barchasi haqida oliy hukmdorlarga har kuni hisobot berib turishi kerak bo'lgan.

¹ Ravshanov P. "Qashqadaryo tarixi". T., 1995 yil. b – 165.

Demak, Devonbegi (bosh vazir) nima bo'lganda ham o'zining ilgarigi maqomini butunlay yo'qotmaganlar.

Shayboniylar davrida Movoraunnahrda ye, suv munosabatlari quyidagi ko'rinishlarga ega edi: Davlat mulki, vaqif xamda xususiy mulkdorlardan iborat edi. Unumli yerlarning asosiy qismi xonlar ularning qarindosh urug'lari, ruhoniylar va hukmron sinfnining boshqa namoyondasi qo'lida to'plangan edi. Dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan edi.

Dehqonchilik haqida so'z yuritganda avvalo sug'orish ishlari qay darajada yo'lga qo'yilganligini aytish joizdir. Bunda sug'orish ishlarida tabiiy tayanch bo'lib kelgan an'anaviy manbalar – Zarafshon, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh, Murg'ob daryolari imkoniyatlaridan foydalanganligi ham shubhasizdir.

Masalan: "Mehmonnomai Buxoro" muallifi Sirdaryo daryosi imkonlari haqida so'z yuritir ekan, bu daryoning kechuv joylaridan, irmoqlaridan ko'plab, katta-katta anhorlar qazilgan va suvi bilan atrofdagi ekinzorlar sug'orilganligini alohida ta'kidlaydi. Sig'noq atrofini obodonlashtirishda bu yaqqol ko'rsatilgan¹¹.

Sun'iy sug'oriladigan yerlar dehqonchilikni rivojlantirishda asosiy negiz hisoblangan. Sug'oriladigan yerlarda paxta, bug'doy, sholi, beda, bog'dorchilik va sabzavotchilik yaxshi edi.

Dehqonchilikning bunday turi adirlar va vodiylarida yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Lalmikor dehqonchilik, chorvachilik bilan birga olib borilgan. Dehqonchilik uchun yaroqsiz bo'lgan yerlarda, sero't yaylovlarda chorvachilik rivojlangan.

¹¹ "Mehmonnomai Buxoro" 74 – 116 – 117 – betlar.

2 . SHAYBONIYLAR DAVRIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT

2.1.Shayboniylar davlatida ilm-fan va ta'lim

Movoraunnahrdagi iqtisodiy va madaniy hayot haqida gap ketganda, avvalo, aholidan turli soliqlar olinar edi, asosiy yer solig'i - xiroj hisoblanib, ho'kizdan-foydalangani uchun – zakot to'lanardi. Amaldorlarning maoshlari uchun – zobitona degan soliq yig'ilardi, qo'shirlarni saqlash uchun butun aholidan harbiy soliq undirardi, bog'lar va tokzorlardan olinadigan soliq tanobnoma deb atalgan.

Ishlab chiqarishga kelsak, Shayboniylar zamonida ham tikuvchilik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik, zargarlik, duradgorlik, qog'oz, qurilish ashyolari kabi bir qator, sohalar faoliyat ko'rsatib ichki va tashqi bozorda sotiladigan turli xildagi mahsulotlar tayyorlangan. Bu mahsulotlar (ipak, jun, ip gazlamalari, gilam, quruq mevalar, qorako'l va boshqalar) bilan savdogarlar Eron, Xindiston, Arab o'lkalari, Xitoy, Qozon, Rossiya kabi o'lkalarga qatnagan.

Shayboniylar me'morchilik ishlarida ham qator yodgorliklar qoldirganlar. Turli maqsadga mo'ljallangan qurilish ishlarini amalga oshirganlar. Bu borada nafaqat sulola namoyandalari, balki o'z davrining ko'zga ko'ringan katta moddiy imkoniyatiga ega kishilari ham chetda qolmaganlar. Chunonchi, Samarqanddagi Muhammad Shayboniy qurdirgan Xoniya, Abu Said Kalbobo ko'kaldosh nomi bilan bog'liq madrasalar, Buxoroda shahar devorining ta'mirlanishi, Mir Arab. Abdulloxon, Modarixon, Juybor, Fatxulla Qushbesh madrasalari, Kalon, Xoja Zayniddin, Abdullaxon, Chorbakir masjidleri, Toshkentda Ko'kaldosh madrasasi, Baroqxon madrasasi, Turkistonda Muhammad Shayboniyxon masjidi va ko'plab mana shunday madrasa-yu, masjidlar turli shaharlarda qurilgan karvonsaroylar, bozorlar va boshqa qurilish ishlari bajarilganlar.

Manbalarda yozilishicha, birgina Abulloxon II davrida mintaqada bir ming bitta ravot va sardoba qurilgan ekan¹.

¹ "Silsilot as salotin". b – 147.

Shayboniylar davrida fan va madaniyatning rivojlanishida mazkur sulola namoyandalarning tutgan oʻrni katta boʻlgan. Avvalo, ularning oʻzlari nihoyatda oʻqimishli shaxslar edilar. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Koʻchkinchixon, Ubaydulloxon, Abdulazizxon kabi Shayboniylar turkiy va forsiyda sheʼr bitganlar. Diniy va dunyoviy ilmlarda yetarli salohiyatga ega boʻlganlar. Muhammad Shayboniyxon yoshligida taʼlimni Buxoro madrasasida olgan. Ubaydulloxonning musiqa ilmiga katta ragʻbati boʻlgani, musiqiy asboblarni chalgani, nozik xusnixat egasi boʻlgani maʼlum.

Shayboniylar davrida ham tarix ilmi juda rivoj topgan. XVI asr tarixini yoritib beruvchi “Tavorixi guzidai nusratnoma”, Mulla Shodiyning “Fathnoma”, Binoiyning “Shayboniynoma”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Abdulloh Nasrullohning “Zubdat al-asror”, Fazlulloh Roʻzbekxonning “Mehmonnomai Buxoro”, Zayniddin Vosifiyning “Badoi ul vaqoye”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” kabi mumtoz tarixiy asarlari fikrimiz dalilidir.

Bundan tashqari Muhammad Shayboniyxon davrida Binoiyning “Ajoyib ul Maxluqot” geografik asarini ham aytishimiz mumkin, deb oʻtilgan mavzuga xulosa yasaladi.

XV asrning ikkinchi yarmida milliy – madaniy markazi boʻlgan Hirot, XVI asrga kelib oʻz mavqieni yoʻqotdi, avval Shayboniy, keyinchalik esa Eron shohi Safoviy hukmdorlarning chekka shaharlaridan biriga aylanib qoldi.

Bu davrga kelib madaniy va adabiy markazlik roli Samarqand va Buxoroga koʻchgandi. Bu shaharlarga faqatgina Oʻrta Osiyo territoriyasidangina emas, balki Eron, Afgʻoniston, Hindiston shaharlaridan ham bu yoki u sohalarining ishtiyoqmandlari kellar edilar. Natijada bu oʻlkada oʻsha zamon madaniyati va adabiyotining turli sohalarida ancha – koʻzga koʻringan vakillar yashab ijod etishgan.

XVI asrda Movarounnahrda adabiyot, tarix fani meʼmorchilik va tasviriy sanʼat rivojlanib bordi. Poeziya juda ravnaq topdi. Hasan Buxoriy Nisoriy (1566 yil)ning “Muzakkir ul - ahbob” va Mutribiyning (1604 – 1605 yillar) “Tazkiroti Shuaro” nomli Oʻrta Osiyo antolgiyalari buning shohididir.

Bularda Samarqand, Buxoro, Toshkent va O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida yashab ijod qilgan bir necha yuz adabiyot va fan arboblarning nomlari keltirilgan. Antologiya tuzilishi bu davrda aholining madaniy saviyasi yuksak ekanligini ko'rsatadi.

XVI asrning birinchi yarmida Movarounnahrda O'zbek tilida adabiy va tarixiy asarlarning paydo bo'lishi maroqli hodisadir. "Tarixi guzidayi Nuratnoma" shu sohadagi ilk asarlaridandir. Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostoni ham o'zbek tilida yozilgan. Bu ikki asar, garchi Shayboniixonning topshirig'I va ishtiroki bilan yozilgan bo'lsada, har holda O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, etnografiyasi va adabiyotiga doir faktlarga asoslangan juda qiziq materiallarni o'z ichiga olgan.

XVI asrda yashab ijod etgan shoirlardan biri, buyuk shoir, adib, tarixchi va olim Boburdir. Boburnomani A. Beverij Boburga shunday baho bergan edi:

"... sahovatligi, mardligi, talantligi, fanga, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan olib qaraganda, Osiyodagi podsholar ichida Boburga teng keladigan birorta podsho topa olmaymiz".

Bobur 12 yoshidan boshlab umrining oxirigacha deyarli uzluksiz urush va yurishlar bilan band bo'ldi. Lekin, shunga qaramay, u keng va chuqur bilim olgan hamda ajoyib iste'dodi bilan o'z davrining yirik madaniyat arboblardan biri bo'lib yashagn edi. U qaerda bo'lmasin, doimo ilm – fan, san'at va adabiyot oqillari bilan yaqindan aloqa bog'lar, ularga homiylik qilar va turli ilmiy – adabiy suhbatlar hamda munozaralar uyushtirar edi.

Bobur 16 – 17 yoshlaridan boshlab, badiiy ijodiyot bilan shug'ulanadi. U "Boburnoma"da 906 – 907 yillar (1449 – 1500 yillar) voqeasi haqida so'zlar ekan, "ul fursatlarda biror ikki qator bayt olishuv erdim, vam g'azal tugamaydir erdim" deydi. Bobur o'zbek klassik adabiyotining, ayniqsa, Alisher Navoiyning boy adabiy merosini hamda fors, tojik adabiyoti ustoz san'atkorlarining adabiy tajribalarini o'rganadi. Boburni eng yirik va eng ajoyib asari uni butun dunyoga tanitgan. Yevropa sharqshunoslari, jumladan, X. Vamberi tomonidan Yuliy Sezarning komentariyalari bilan bir qatorga quyilgan kitobi "Boburnoma"dir. Bu

asar tarixiy manba bo'lishi bilan birga o'zbek prozasining qimmatli yodgorligidir, shu bilan birga "Boburnoma" geografiya, etnografiya, tabiat, xalq meditsinasi va boshqa ilmiy sohalar boyicha ham qimmatli ma'lumotlar beradi.

Boburning "Boburnoma"dan tashqari yana bir qancha asarlari bor, bular islom dini huquqshunosligi va shariat aqidalarini bayon etuvchi "Mubayyn" nomli she'riy risolasi "Validiya" nomi bilan atalgan tasavvufga oid kitobi "Xatti Boburiy" nomi bilan mashhur bo'lgan alfabit jadvalidan iborat. Shular jumlasidandir. Abdulla ibn Muhammadning "Zubdat ul asror" nomli tarixiy asari XVI asrning birinchi choragida majburdir. Unda Shayboniyxonning halok bo'lishiga olib brogan sabablardan biri – Shayboniylar lageridagi ziddiyatlar ochib ko'rsatilgan.

Rashididdin va Sharofiddin Ali Yazdiyning tarixiy asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinadi. Ulug'bekka bag'ishlangan "Muntahabi Jome" va "Tavorixiy shoxiy" degan asarning o'zbek tiliga tarjima qilinganligi o'zbek tilining ta'sir doirasi kengayib borganidan dalolat beradi.

O'z zamonining tarixiga doir "Sharafnomai shoxiy" degan katta asarini Hofuz Tanish Buxoriy yozgan bo'lib siyosiy voqealarga boy. Bu asarda O'rta Osiyoning ijtimoiy – iqtisodiy tarixiga oid juda ajoyib ma'lumotlar bor.

Shuningdek, bu davrda ayrim Shayboniy hokimlari adabiy asarlar yaratishda qatnashganlar. Shayboniyxonning o'zi ham o'z zamonasining o'qimishli odami edi. Bu haqda X. Vamberi shunday yozadi, u har holda o'zining Eroniy dushmanlari tarafidan ta'sir etilganidek, nimani hohlasa, shuni bajarib yuruvchi vahshiy bir kimsa emas edi. Masalan, u zamonning ruhoniy ulamolariga katta hurmat, hatto bolalarcha itoat qilib, barcha urush safarlarida o'zi bilan barobar kichkina go'zal kutubxonasini olib yurar, Temur kabi bu ham doimo diniy munozaralarga qatnashgan. Qur'onning ba'zi bir oyatlari haqida Hirotning nimqadam tafsifchilari bo'lgan qozi Ixtiyor va Muhammad Yusufga e'tiroz ham bildirgan edi.¹

¹ // "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jo'rnali. 2005 yil. №4.

Shayboniyxon Bobur aytganidek, ma'nosiz va lazzatsiz she'rlar yozmagan, balkim go'zal she'rlar yozgan. Shayboniyxon tomonidan 1508 yilda yozilgan, chig'atoy Turkiy tilidagi "Bahr ul asror" (Haqiqiy yo'lning dengizi) nomli diniy qasidaning yagona qo'l yozma nusxasi Angliyaning Londondagi Britaniya muzeyi kutubxonasida saqlanmoqda. Bu qasidaning bir joyida Shayboniyxon shunday deydi:

*Podsholig'da Shayboniy faqrdan ayrilmag'il,
Faqr shohi ikki olam ichra bo'lur podsho.
Tetri gar berdi seta Eroniy Turon,
Bandalik tavrini Shayboniy bermagil eldan daho.*

Shayboniyxonning she'rlar to'plami bo'lgan "Devon" 191 varaqdan iborat bo'lib, bugun Turkiyaning Istanbul shahridagi To'nqoni saroyi kutubxonasida saqlanmoqda. Sakkokiy, Gadoiy, Navoiy an'anasidagi klassik chig'atoy Turkiy she'riyatini davom ettirgan Shayboniyxonning she'rlarida diqqatni o'ziga jalb qilgan hassos – shoirning Turkiston yurtiga bo'lgan cheksiz muhabbatini har doim tilga olib turganidir. Turkistonning Buxoro, Samarqand, urganch, Yassi shaharlari nomini o'z she'rlarida Shayboniyxonga qadar ko'p ishlatgan boshqa shoir yo'q desak sira yanglishmaymiz. Masalan:

*Jannati ma'vo degan bog'i Samarqand elim,
Navsari a'lo degan obi Samarqand elim,
Yoki Buxoro haqida yizilgan
Bir zayolim bor ko'ngilim pirmu vafoiy atayin.
Ul Buxoro sharida Ka'ba tavofin aylayin.*

Shayboniyxon XVI asr adabiyotiga katta xissa qo'shgan shoirlardan biridir.

Shayboniylar zamonida fan keng rivojlandi. Hatto sonlarni zarb qilish haqida izoh berilgan "Hisob usullari risolasi" XVI asrga mansub asardir. 1593 yilda Amin Ahmad Roziy "Haft iqlim" (Etti iqlim) degan jo'g'rofiy – biologic lug'at tuzdi. Mutrabiyning dunyo xaritasi kashf qilingan. "Tazkiroti shuaro" ham taxminan shu vaqtlarda yozilgan. Bu davrda meditsina sohasida qilingan ilmlar sezilib turardi. 1541 yilda Muhammad Husayn Ibn Al – Me'roni as - Samarqandiy tibbiy va farmakologiya ruyxatiga oid ilmiy asar yozib, o'ta dorivor o'simliklardan dori tayyorlash va saqlash uchun ishlatiladigan idishlarning rangdor nafis syr'atlar ilova

qilindi. XVI asr Qozilarning hujjatlaridan biz Samarqandda tabiblar ko'z kasalliklarini davolash ishlari bilan shug'ullanganliklarini bilamiz. Ko'z tabibi Shoh Ali ibn Sulaymon Navro'z Ahmadxon huzurida ishlagan. Samarqandda Ko'chkinchixon zamonida Hirotlik tabib Sulton Ali ishlagan. U kasalliklar va terapiya haqida umumiy ma'lumot beradigan "Tabiblik dasturlamasi"ni yozgan.

Shayboniylar davrida ko'p asarlar o'zbek tiliga tarjima qilingan. Kitobga qiziqish zo'rligidan kutubxonalar tashkil qilingan.

XVI asrda hattotlik san'ati juda yuqori darajada rivojlandi. sulton Ali Mashxadiy, Mir Ali Xiraviy, Muhammad ibn Ishoq, ash Shixobiy va boshqalar mashhur xusnixat ustalari edilar. 1586 – 1587 yillarda Darvesh Muhammad ibn Do'stmuhammad Buxoriy polisrafiya san'ati nazariyasiga oid asar yozgan.

Bu davrda yozilgan asarlar suratlar bilan bezatilgan. Bunday asarlar jumlasiga "Fathnoma", "Tarixi Abulxayrxoniy" 1521 yilda tuzilgan. Alisher Navoiy asarlarining ruyxati 1562 – 1563 yilda ko'chirilgan "Tavorixi guzidayi nusratnoma"ni ko'rsatish mumkin. Bu asarlarni bezashda ishlatilgan minatyuralar O'rta Osiyo moddiy madaniyatini aks ettiradi.

Bu davrdagi musvirlar ijodini tadqiq qilgan G. A Pugachenkova XVI asrda O'rta Osiyoga xos alohida minatyura rassomligi paydo bo'ldi, deb aytgan edi.

Shayboniylar xuddi Temuriylar singari nihoyatda o'qimishli madrasa ta'limini olgan, dunyoviy va dininy bilimlarni egallagan, harbiy san'atda ham, she'riy san'atda ham iste'dodli, ijodkorlar bilgan, hatto forschani go'zal yozishni mukammal egallagan. Xullas, ziyoli davlat arboblari bo'lishgan.

Shayboniylar davrida ilm – fan, madaniyat, adabiyot va san'at, me'morchilikning ravnaq topishida sulola vakillarining ibratli shaxsiy ta'sirlari ham zarvorlidir. Mamlakatning turli tomonlaridan taniqli shoir, tarixchi va olimlarning Shayboniyni qora tortib, panoh izlab Buxoroga kelishlari va layoqatlariga qarab mansab hamda uy joy va etarli mablag' bilan ta'minlanishlari, izzat – ikrom topishlarining boisiham ana shundadir. Muhammad Shayboniyxon, Ubaydulloxon, Rustam Sulton, Abdulazizxon va Jahongir Sulton shoir bo'lishgan, o'zbekcha va forscha she'rlar yozishgan. Abdullaxon I esa musiqashunos, sozanda

va astronomiya bilan shug'ullangan. Abdullaxon II Qur'oni karimni tafsir qilishda hadisi shariflarni tahlil va talqin qilishda din peshvolarining fan olamlariga sazovor bo'lgan....Bu ta'rifu tavsiflarimiz shunchaki, quruq gaplar emas, balki o'sha davrda zamondoshlari bo'lmish taniqli mualliflar tomonidan yozib qoldirilganxolis fikrlardir. Misol tariqasida bu bu kitoblardan ayrimlarini Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma", Fazlulloh ibn Ro'zbexonning "Mehmonnomai Buxoro" va "Suluk al - muluk", Mulla Shodining "Fathnoma" (Shayboniixonning tarjimoiy holi she'riy tarzda hikoya qilinadi) va Tavorixi guzidom nusratnoma (o'zbek tilidagi nasriy asar), Abdulla ibn Muhammad ibn Ali Nasrulloning "Zubdat ul - osor" (o'zbek tilida), Hofuz Tanish ibn Mir Muhammad al - Buxoriyning "Shartnomai shohiy" (bu asar "Abdullanoma" nomi bilan mashhur), Muhammad ibn Valining "Bahr ul -asror", Zayniddin Vasifiyning "Badoe ul vaqoe" degan asarini keltirishimiz mumkin. Bu ruyxatini yana davom ettirish mumkin, lekin shu nomi tilga olingan mumtoz tarixiy va memuar asarlarning o'ziyoq shayboniylar davrida ham bo'lganidek, tarix fani ancha rivoj topganini ko'rsatadi. Biroq farqi shundaki, temuriylar davrida tarixiy kitoblar ko'plab forscha yozilgan bo'lsa, shayboniylar zamonida esa o'zbek tilida ham ta'rif etiladi.

Shayboniylar davrida kitobat ishlariga qo'lyozmalarni husnixat bilan ko'chirish yo'li bilan nusxani ko'paytirish, ularni voqeaband miniatyuralar bilan bezatish, chiroyli va chidamli muqovalarga jamlashga katta e'tibor berilgan. Shu tariqa, Alisher Navoiy homiyligida Kamoliddin Behzod va uning safdoshlari tomonidan yaratilgan Hirot rassomchilik maktabi vujudga keladi. Zotan bu davrga kelib, bu ham, o'zbeklarning bu boradagi markazi ham Hirot dan Buxoroa ko'chgan edi. Shayboniylardan Abdulazizxon va Abdullaxon II ning kutubxonalari o'sha zamon musulmon Sharqidagi eng yirik kitob xazinalaridan edi.¹

Shayboniylar davrida ham temuriylar zamonidagi yuksalishning ruhi so'nmagan edi. Nafaqat poytaxt shaharlar bo'lmish Samarqonq va buxoroda, balki shular bilan bir qatorda mamlakatning barcha viloyatlarida halqimizning bunyodkorlik ishlari davom etar, barcha viloyatlarimizda ham bizkim o'zbeklar

¹ Muhammad Solih "Shaybiniynoma". T., 1988 yil. b – 92.

bag'ridan etishib chiqqan iste'dodli olimlar, shoirlar, tarixchilar, ulamolar, san'atkorlar va shu kabi madaniyat, ilm – fan, adabiyot va san'at ahli samarali va barakali faoliyat ko'rsatar edilar. Chunki bizkim o'zbeklarning birlashgan va markazlariga o'z milliy davlati dovrug'i etti iqlimga etgan Buxoroi sharifday poytaxti bor edi, Qoraxoniylar saltanatidan so'ng, ya'ni 1212 yildan keyin oradan uch yarim asr o'tgach, Buxoro poytaxtlik maqomiga erishgan edi. Musulmon sharqidagi an'anaviy udumga ko'ra sulolaga asos solgan shaxs sulolaboshi nomi bilan atashuvchi Shayboniylar davlati ibtidodidan eng qadim zamonlardan Turon deb milodiy 539 yildan ham Turon, ham Turkiston deb nomlanib kelayotgan mamlakatimizga angi nom berdi: O'zbekiston deb atala boshladi. Shayboniylarning tarixiy xizmatlaridan biri, aytish mumkinki, qaytarilmas xizmatlaridan biri shuki, Turkiston deganda barcha turkiy xalqlarga ma'lum darajada o'ziga xos belgi va xislatlri, turmush tarsi va boshqa shu kabilar bilan farqlanuvchi, xullas o'z milliy qiyofasiga ega, bizkim o'zbeklarning mamlakati tushuniladigan bo'ldi. Bu chindan –da qaytarilmas va tarixiy voqea bo'lib, allaqachonlardir dunyoga kelgan kamolotga etib, o'zligini namoyon qilgan Turonu Turkiston zaminiga tup quyib palak yozgan xalqa, bizkim, o'zbeklarning vataniga xuddi oltin uzukka yoqut ko'z qoyilganidek munosib, mazmundor va sharaflil nom berilgan edi: O'zbekiston!!!

Me'morchlik – qurilish san'atining yuksak pog'onasi. Goyo, unda davriy taraqqiyot- sivilizatsiyaning qiyofasi aks etda. U davrning vakili bo'lmish, jamiyatning foydalilik chidamlilik va go'zallik haqidagi ko'tarinki g'oyalarini o'zida saqlab qolishi mumkin. Me'moriy yodgorliklar qiyofasida tarixini o'ziga xos tosh kitobi shakllanadi, qo'l bilan yaratilgan musiqa timsoliga aylanadi.

O'zbekiston me'morchiligining tarixiy ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, So'g'd, Baqtriya, Xorazm kabi ilk davlar davridan boshlab, to Temurgacha va undan so'bg me'morchilik borasida muhim ulkan qurilishlar amalgam oshirilganligiga shohid bo'lamiz. Ayniqsa, Temur va temuriylar davrida me'morchilik o'z davrini rivojining yuksak cho'qqisiga erishdi.

O'zbek me'morchiligida shayboniylar temuriylardan keyin eng katta hissa qo'shgan sulola sanaladi. Shayboniylar Temur va temuriylar davridagi me'morchilik an'alarini davom ettirdilar, XVI asrdan bizgacha ko'pgina arxetuktura yodgorliklari ko'proq dininy maqsadlarga mo'ljallangan jamoat binolari – masjidlar, madrasalar, mozorlar, shuningdek, savdo – sotiq uchun belgilangan binolar etib kelgan.

Shayboniylar davri me'morchilikda ustalarning ijodi hajmini qisqartirish va soddalashtirish hisobiga ko'pgina binoning dekarativ pardozini zaiflashtirish evaziga, asosan gumbazsimon toshlarning me'moriy formalari va ularni qurishda omilkorligi ko'zga tashlanadi. Bu me'mor ustalarning katta iste'dodga ega ekanliklarini, materialni va qurilish texnikasini juda bilimdonlari ekanliklarini ko'rsatadi.

Shayboniylar davrida eng yirik binolar Buxoroda qurilgan. Bu davrda Buxoroning iqtisodiy va siyosiy obro'sini oshishi shahar aholisining ko'payishi uning kengayishiga sabab bo'ldi. Ma'lumki, me'morriy qurilishlarda nafaqat shayboniy hukmdorlar, balki saroy ayonlari ham aktiv ishtirok etganlar. Masalan, Samarqandda Muhammad Shayboniyxon, Abu Saidxonlar madrasalar qurdirganlar. Muhammad Shayboniyxon bundan tashqari Yassi shahrida jome masjidi qurdirgan. Balx shahri qal'asining devorini ta'mirlashtirgan. Uning vorislari davrida mazkur faoliyat davom ettirildi. Xususan Abdullaxon va Abdullaxon II davrida Buxoro shahri yangi devor bilan o'rab olindi.

XVI asrda qurilgan juda ko'p monulintal binolar shaharni yanada bezadi/ Samarqandda Bibixonim masjididan keyingi 'rinda turuvchi masjidi Kalon bunga misol bo'la oladi. Masjidi Kalon o'zining tarixiga ko'ra Temur Bibixonim masjidini takrorlaydi: hovlissi to'g'ri burchakli, atrofi ayvon bilan o'ralgan, shuningdek, hovlini g'arb tomonidan katta darvoza qarshisiga mehrob ustida monumental yirik binosifatida ko'kka ko'tarilib turgan qurilishining bosh qismida alohida ko'zga tashlanib turadi. Binoning bu qismi tetjida baland havorang gumbaz bor.

1536 – 35 yillarda Masjidi Kalon qarshisida Mirarab madrasasi qurildi. Bu katta madrasa Ubaydullaxonning mablag'lariga Mirarab deb atalgan nufuzli shayx Abdulla Yamonli uchun qurilgan. Ma'lumki, Shayboniyxon shahid ketgan. 1510 – 1520 yillarda amakim Ko'chkichixon 1530 – 1533yillarda uning o'g'li Abu Said Shayboniylar davlatini boshqaradi. Biroq ularda ichki nizolarni bartaraf etishda Safoviylar davlatidek qudratli tashqi g'animga qarshi urash olib borishda shijoatu – o'quv etishmaydi.

Ana shunday tarixiy sharoitda tarix maydoniga Muhammad Shayboniyxonning jiyani Ubaydullo Sulton chiqadi. U g'ayratli, o'quvli davlat arbobi va shijoatli lashkarboshi edi. 1533 yil xonlik mansabini egallagan Ubaydullaxon mamlakatni rasman poytaxt Samarqanddan emas, balki Buxorodan turib boshqardi.

1530 yili, Ubaydullo Sultonxon noibi bo'lgan bir paytda ham, uning o'ziga ham fikr do'sti Mir Arabga og'ir bir sinovdan o'tishga to'g'ri keladi. Safoviylarning qizil boshlilardan iborat katta qo'shini mamlakatimizga bostirib kirib to G'ijdivongacha etib keladi, Ubaydullo Sulton o'z qo'shini bilan dushmanga qarshi chiqadi. Birinchi to'qnashuv jang taqdirini hal qila olmaydi, sababi dushman qo'shini son jihatidan o'zbek qo'shinidan ortiq edi, Ubaydullo Sultonning qo'shini kam sonli bo'lgani uchun ertasi kuni bo'lajak jangda qo'li baland kelishi amri mahol bo'lib qoladi, lashkar orasida tushkunlik yuz bera boshlaydi. Ana shunday qaltis bir vaziyatda, kech oqshom paytida Mir Arab Hazratlari qo'shin qoshida shunday bir nutq irod etadilarki, bundan lashkarlar o'ta mutassir bo'ladi, ruhi ko'tariladi va o'sha xuftundayoq tungi hujumga o'tib dushman ustidan to'la g'alaba qozonadi. Turkistonning mustaqilligi, halqimizning erki, dini – mashabi, or – nomusi, iftixori saqlanib qoladi, Ubaydullo Sultonni bu g'alaba uni ma'naviy ilhomxhisi Mir Arabga bag'ishlaydi, keyinchalik shu g'alaba sharafiga yangi madarasa qurishga farmon beradi. Bu madrasa Buxoroni Buxoro qilib, unga ko'rk bag'ishlab, ma'rifat, ruhoniyyat o'choqlaridan biri bo'lib kelayotgan Mir Arab madrasasidir.

Madrasa qurilishi 1530 yili boshlab yuboriladi. Qurilishda xalqimizning turli qatlamlari, hunarmandlardan tortib tolibi, ilmlargacha, o'sha jangda qatnashgan g'oliblardan tortib ruhoniylargacha qatnashadi, chunki mag'lub bo'lib imon – e'tiqodidan ayrilib qolish xavfidan qutulishisevinchi. Oshunday qimmatli, shunday safarbarlikni keltirib chiqargan edi.

O'z yirikligi va arxitektura sifatlari bilan katta qimmatga ega bo'lgan binolar XVI asr Buxoroning atroflari ham qurilgan. Sulton qishlog'idagi bir – biri bilan ikki qavvatli ark orqali birlashtirilgan. Bahouddin qishlog'idagi mashhur xo'ja Bahouddin Naqshbandining mozori oldida qurilgan katta gumbazli xonaqo, hokimi Mulla Mir qishlag'idagi masjidlar shular jumlasidandir.

Samarqand arxitektura sohasidagi ijod hatto temuriylar bilan Shayboniylar o'rtasida hokimiyat uchun kurash avj olgan paytda ham to'xtashadi. Shayboniixon davrida madrasa va Zarafshonda qoldiqlari g'isht arki ko'rinishida bizning kunlarimizgacha etib kelgan suv taqsimlovchi ko'priq qurildi. XVI asrning diqqatga sazovor qurilishlari, shuningdek, Karmanada va Toshkentda saqlanib qolgan.

Grajdani arxitekturasi yodgorliklaridan ko'priq va sardobalardan tashqari Buxoroning bozor ko'chalari chorrahalarida qurilgan naqshli beshta bino, ayniqsa, katta diqqatga sazovordir. Bu binolar: Toqi Sarofon, Toqi Telpakfurushon, Toqi Zarafshon va bizgacha etib kelmagan, Toqi Tirg'dan hamda Toqi Urufurushondir. Bu hashamatli binolar tipi Abdullaxon nomli tepasi yopiq katta bozor bilan birga poytaxtning markaziy qismini hamisha gavjum bozorning tashqi arxitektura ko'rinishini tashkil qilar edi. Grajdani arxitekturasi asarlaridan juda yaxshi va hozirgacha ishlab turgan. Sarafon hammomini ko'rsatish mumkin. Buxoroning arxitektura binolarini ichki va tashqi tomonining bezagida turli tuman usullar qo'llanilar, ammo tayyor suratga qarab maxsus qurilgan turli rangdagi koshinlardan iborat bo'lgan sirli uymakor mozoika XVI asrda juda qimmatga tushuvchi va ko'p mehnat talab qiluvchi usul sifatida ancha kam qo'llanilardi. Naqshning relvori, qismlariga tillo suvi berilar, fon ko'k yoki yashil ranglarga boyalar, mayday gullar va naqshlar ham shunga qarab boyalardi. Bularning

barchasi goyo mayday gulli armomentga ega bo'lgan yashil yoki ko'k maydonga tilla naqshlar yoyilib tashlanganday tasavvur hosil qilardi. Toshga naqsh ishlash Buxoro muzeyida saqlanuvchi kulrang marmardan ishlangan ajoyib qabr toshlaridan ma'lum. Bu toshlar boshdan oyoq juda yaxshi ishlangan va sinchiklab oyilgan gullar armament bilan hamda kalligrafik qoidalarga qat'iy buysunib oyilgan yozuvlar bilan qoplangan.

Umaman, XVI asrda me'morchilik sohasida ham ulkan ishlar qilindi. Turli maqsadlar uchun ko'pdan – ko'p grajdanlik, madaniy va injenerlik binolari qurildi. Bu binolar O'rta Osiyoda me'morchilikning shu asrda injenerlik va texnik badiiy jihatdan yuksak mahorat darajasiga erishganidan me'morchilikni rivjlantirishda yangi yo'l kashf etilganidan dalolat beradi. Afsuski, karvonsaroylar, rastalar, masjid – madrasa, ko'priklar bino qilgan xalq ustalarining nomlari bizning zamonamizga etib kelmagan, ayrimlarini hisobga olmaganda, masalan, 1541 – 1545 yillarda Kafolat shogird maqbarasini qurgan me'mor G'ulom Husaynning nomi saqlanib qolgan.

O'rta Osiyoda shu davrda srajdanklik ahamiyatiga molik, har turli savdo rastalari, ariq va kanallar, ko'prik solish ishlari keng quloch yoydi. Shayboniyxon davrida yangi karvon saroylari solindi. Masalan, G'ijduvon Buxorodagi Tilla Kalon hammomlar solindi. Jenkinsonning garlariga qaraganda, Buxoroda hammomlar shunday ustalik bilan solinganki bunaqa hammom dunyoda yo'q.

XVI asr nafaqat Buxoro, Samarqand shaharlariga katta e'tibor qilindi, balkim boshqa shaharlarda ham katta – katta binolar qurildi. Yassada masjid, Qarshi shahri daryo yonida saroy, sovrinda madrasa qurildi.

XVI asrning eng yirik me'morchilik inshoatlaridan biri Termiz nohiyasi "Namuna" jamoa xo'jaligi territoriyasida "Kokildara" (Kokildor ota) bo'lib, mavzoliy xonaqo hisoblanadi. O'sha vaqtda rasm bilan nafis panjara va ayvon xuddi shu Kokildora mavzoleyida ham bor.

2.2. Abdullaxon II davrida ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot

Shayboniyxon vafotidan so'ng uning avlod-ajdodlari o'rtasida toj-u taxt, hokimiyat, mol-dunyo va davlat talashib o'zaro qonli urushlar ayj oldi. 1510-1530-yillarda Shayboniyxonning amakisi Ko'chkinchixon hokimlik qiladi. Unga o'g'li Abdusaid (1529-1533) va jiyani Ubaydullaxon (1533-1539) merosxo'r bo'ldi. Abdullaxon I ning qisqa hukmronligidan (1539-1540) so'ng Movarounnahrda qo'shhokimiyatchilik vujudga keldi. Bunga sabab, Buxoroda Ubaydullaxon o'g'li Abdulazizxon (1540-1550), Samarqandda esa Ko'chkinchixon o'g'li Abdullatifxon (1540-1551) taxt boshqarganlar. Hokimiyat talashib kurash mis-li ko'rilmagan cho'qqiga ko'tarildi. Shayboniyxon avlodlarining har birida 10-12 tadan o'g'il farzand bo'lib, ularning har biri taxt uchun vorislik qilishga da'vogar edi. Shu bois Movaroun-nahr hududi bir necha bo'laklarga bo'linib ketdi. Karmana va Miyonqal'ada Iskandar Bahodir, Balxda Pirmuhammad, Qarshida Sulton Qilich Qora, Hisorda Shayboniyxonning nabirasi sulton Burhon hokimlik qiladi. 1556-yilda Abdullatifxon vafot etgach Samarqand taxtini Baroqxon³ qo'lga kiritib, Navro'z Ahmadxon nomi bilan besh yil hukmronlik qiladi.

1550-yilda Sulton Abdulazizxon vafot etgach, o'nlab sultonlar, beklar va amirlar Buxoro taxti uchun kurashni avjiga mindirdilar. Dastlab Buxoro Shayboniyxonning nabirasi Sulton Muhammadyorga tegdi, lekin u bir yil o'tmasdan Pirmuhammad tomonidan quvildi. Pirmuhammadga qarshi Baroqxon va Abdullatifxonga sulton Said, sulton Muhammadyor va Burhon sulton qo'shiladi. Ular birgalikda Miyonqal'a, Karmana va Qarshiga yurish boshlaydilar.¹

Vahimaga tushgan bu shaharlaraing hokimlari qochib ketadilar. Faqat Miyonqal'a hokimi Iskandarning 18 yoshli o'g'li Abdullagina qal'ada mustahkamlanib sultonlargaing bir-lashgan kuchlariga qarshi yolg'iz o'zi kurashga o'tlanadi. 12 kun davom etgan jangdan so'ng sulh bitimi imzolanadi. Bitimga ko'ra Abdulla Balxga jo'nab ketishga majbur bo'ladi. 1556-yilda Baroqxon vafot etgach uning farzandlari o'rtasida boshlangan taxt vo-risligi uchun kurashga aralashib undan

¹ Ahmedov B. "O'zbek ulusi". T., 1992 yil. b – 54.

ustalik bilan foydalangan Abdulla navbatdagi g'alabaga erishadi. U quvg'inlik yillarini bekorga o'tkazmadi. Eng obro'-e'tiborli o'nta o'zbek qabilasi -qushchi, o'tarchi, kenagas, yuz, jaloyir, major, qipchoq, ming', bahrin qabilalari, shuningdek jo'ybor shayxlari hamda musul-mon ruhoniylarining boshqa e'tiborli va qudratli vakillarining himoyasi va qo'llab-quvvatlashiga sazovor boladi. Abdulla Ilono'tdi yaqinidagi jangda Baroqxonning o'g'il Bobosulton va uning ittifoqchisi Toshkent hokimi Darveshxonning birlashgan kuchlarini tor-mor keltiradi. Abdulla uchun Buxoroga yo'l ochiq edi. U Qarshi, Chorjo'yni egallab, sulton Burhonni mag'lubiyatga uchratib Buxoroga tantanavor kirib boradi. Buxoroni zabt etadi. Buxoro Abdullaxon zamonida siyosiy hokimiyat markaziga aylanadi. Markazi Buxoro bo'lgan davlat Buxoro xonligi deb atala boshlanadi.

Abdullaxon Shayboniylar urf-odatlariga katta hurmat bilan qaraydi va yoshi ulug' bo'lgan o'z amakisini, so'ng otasini xon deb e'lon qiladi. Amalda Abdullaning o'zi ularning nomidan hokimiyatni idora etardi. Otasi Iskandarxon 1561-yili xon deb e'lon qilinadi. U 1582-yil vafotiga qadar xonlik taxtida o'tiradi. Otasi vafotidan so'ng 1583-yil Abdullaxon II o'zini rasman xon deb e'lon qiladi. Abdullaxon (1557-1598) hukmron bo'lgan davrda Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlatga asos soldi. Uning butun hukmronlik yillari urush va jang-u jadallar bilan o'tdi. 1557-yilda Shahrisabzni, 1569-yilda Samarqandni egalladi. 1558-1572-yillarda o'rtada tanaffuslar bilan Badaxshon uchun jang qiladi, Balx va Hisorni qo'lga kiritdi. 1582-yilda Toshkent, Sayram, Turkiston, Farg'ona, 1583-yilda Xuroson, 1595-yilda esa Xorazm taslim etiladi.

Abdullaxon II Amir Temurdan so'ng Movarounnahrda nisbatan qat'iy siyosat yurgiza olgan yagona va so'nggi davlat arbobi edi. U Buxoro hokimiyatini tiklash maqsadida Qozog'istonning hozirgi Qarag'anda viloyati g'arbidagi, Sariqsuv daryosining Shimolida joylashgan Ulug'toqqa yetibborgan, tog' tepasidagi bir minorada bitilgan quyidagi so'zlarga ko'zi tushadi: «Tarix yetti yuz to'qson uchinda qo'y yili, yozning ora oyi, Turon-ning sultoni Temurbek ikki yuz ming cherik bila To'xtamishxon yurtiga intiqom uchun yurdi. Bu yerga yetib, belgi bo'lsun deb bu

minorani qurdiradi. Tangri nusrat bergay inshoolloh. Tangri el kishiga rahmat qilg'ay. Bizni duo bilan yod qilg'ay».

Mazkur bitiklar 1391-yili Amir Temur To'xtamishxonga qarshi lashkar tortgan kezi shu tog' ustiga chiqib, so'ng bu yerda bir minora qurdirib xarsang toshga o'ydirib yozdirgan xotira so'zlari edi. Abdullaxon II buyuk sohibqiron haqiga duolar o'qittirib, o'zi ham qarshi tomonda bir minora qurishga buyruq berdi va unga «Kimki bu manzilga qadam qo'ysa, xayrli duo ila bizni yod aylasin» so'zlarini o'ydirtiradi.' Amir Temur Turkiston shahrida Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasi va masjidini qurdirgani ma'lum. Tugallanmay qolgan bu ishni oxiriga yetkazish Abdullaxon II ga nasib etadi.

Abdullaxon II XVI asrning 80-yillarida Xurosonda, uning markazlari Hirot, Mashhadda, 90-yillarda Seyiston, Garmsir va to Xilmand daryosigacha bo'lgan hududlarda o'z saltanatini o'rnatdi, Qandahorni ham egallaydi. Uning davrida hozirgi Qarag'andadan (Ulug'tog'dan) Xilmand daryosigacha, Sibir xonligidan Mashhadgacha bo'lgan hududlar yana bir bor Oliy hokimiyati Buxoro qo'l ostida birlashdi. Bunday katta saltanatga Amir Temurdan so'ng Abdullaxon II asos soladi. Rossiyaliklar uning davlatiga nisbatan «Buyuk Buxoriya» degan iborani qo'llashgan edilar.

Ana shu davrdagi Abdullaxon II ning markazlashgan davlat tuzish borasidagi faoliyati Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» asarida o'zining mukammal ifodasini topgan.

Abdullaxon zamonida Buxoro xonligida dehqonchilik, hu-narmandchilik, savdo-sotiq rivojlanadi, madaniy hayot ancha yuksaladi. Juda ko'p sug'orish inshootlari: Abdullaxon bandi, Tuyatortar kanali, Okchopsoy to'g'oni va suv ombori, Vahshdan chiqarilgan ko'plab ariqlarning qurilishi dehqonchilikni rivojlantiradi. Bu vaqtlarda Buxoro xonligida bug'doyning 10 xil turi, suli, qo'noq, jo'xori, mosh, no'hat, makkajo'xori, loviya, sho-li paxta, kunjut, beda, arpa, sabzavot va poliz ekinlari ekilgan, bog'dorchilik, chorvachilik va ipakchilik rivojlangan. Samar-qand, Buxoro, Marg'ilon, Xo'jand, Andijon, Toshkent, Jizzax, O'ratepa, Shahrisabz va boshqa yirik shaharlarda hunarmand-chilik taraqqiy qilgan.

Samarqand qozi kalonining hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, XVI asrda Samarqandda hunarning 61 turi mavjud bo'lgan. Movarounnahrlik hunarmandlar zo'r san'at bilan turli-tuman metall buyumlar, ip va ipak matolar, a'lo navli qog'ozlar ishlab chiqarganlar. Buxoro shahri bu vaqtda ancha kengaytirilgan, devor va harbiy istehkomlar qaytadan qurilgan. Shaharda madrasalar, xonaqoh va karvonsaroylar, yangi rastalar barpo qilingan. Shahar o'rtasidagi tim, ko'chalar chorrahasi ustiga gumbaz-toqlar, hammomlar, karvon yo'llarida sardobalar, karvonsaroylar, ko'priklar qurilgan.

Abdullaxon davrida Buxoro xonligining Hindiston, Xitoy, Turkiya, Rossiya bilan savdo va diplomatik munosabatlari rivojlangan. 1572-1578-yillari Hindistonda Buxoro xonining elchilari, Buxoroda esa Hindiston podshohi Akbarning elchilari bo'lgan.

Abdullaxon II elchilari 1583-yili Moskvadan o'q-dori, ov qushlari, mato olib kelganlar. Bunday elchilik 1589, 1595-yillarda ham takrorlangan.

Abdullaxon II ning mamlakat ichki siyosatidagi, davlat boshqaruv tizimini mustahkamlash, ayniqsa, pul islohoti o'tkazish yo'lidagi faoliyati natijalari keyingi davrlarda ham saqlanib qolgan. Uning davrida Buxoro yaqinida Sumitan (Jo'ybor) mavzesida Jo'ybor xojalaridan Abu Bakr Sa'd mozori atrofiga madrasa, masjid, xonaqoh va chorbog', Buxoroda madrasa, hammom, Govkashon, Fathulla qushbegi, Mirakan, Xoja Muhammad Porso, Yangi Chorsu (1569-1570), tim (Abdullaxon timi), Karmana yaqinida Zarafshon daryosi ustiga ko'prik (1582) qurilgan. Bu kabi inshootlar Toshkent, Samarqand, Balh va boshqa shaharlarda ham qurilgan. Turkiston shahridagi Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi, masjidi ta'mirlangan.¹

Abdullaxon II ning nufuzli amiri Qulbobo Ko'kaldosh sharafiga Toshkentda Ko'kaldosh madrasasi qurilgan. Uning davrida shaharsozlik, ilm-fan taraqqiy etadi. Buxoro madaniyat, ilm-fan markaziga aylanadi. Buxoroda mashhur Abdullaxon kutubxonasi tashkil bo'ladi. Unda mashhur hattotlar Mir AH Hiraviy, Ahmad

¹ Hasanxoja Nisoriy "Muzakkiri ahhob". T., 1997 yil. b – 73.

Husayniylar va boshqalar kitob ko'chirish bilan mashg'ul bo'lishgan. Sayid Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» asari Abdullaxon II ga bag'ishlangan.

Bu davrda shoir, adib va ilohiyotchi olimlardan Mushfiqiy, Nizom Muammoiy, Muhammad Darvish oxund, Qozi Poyonda Zominiy, Mulla Amir, Muhammad Alti Zohid, tabiblardan mavlono Abdulhakim va boshqalar yashab ijod etgan. Abdullaxon II ning o'zi ham iste'dodli shoir bo'lib «Xon» taxallusi bilan o'zbek va fors tillarida she'r yozgan.

Harbiy san'at taraqqiy etgan. Qo'shin tarkibini nayza, qi-lich, manjaniq, shotular bilan qurollangan otliq va piyoda qismlar tashkil qilganlar. XVI asr ikkinchi yarmidan qo'shin Turkiyadan keltirilgan pitta miltiq va zambaraklar bilan qurollana boshlagan.

Abdullaxon II markazlashgan davlatni tuzishda isyon-kor zodagonlarni qattiqqo'llik va shafqatsizlik bilan jazoladi, sultonlar, beklar, amirlar va o'zining bir qator qarindosh-urug'larining boshlarini tanlaridan judo qildirdi. Ammo u har qancha qattiqqo'l bo'lmasin siyosiy tarqoqlik tartibotlariga qarshi kurashda ojizlik qiladi va bu tartibotlarning navbatdagi qurboni bo'ladi. Rivoyatlarga qaraganda Abdullaxon II o'g'li Abdulmo'min tomonidan 1598-yili zaharlab o'ldirilgan. Bu ishda harbiy zodagonlar boshliqlaridan bin Muhammad Boqibiy tash-kilotchilik qilgan. Hokimiyatni zo'rlik yo'li bilan otasi qo'lidan olgan oqqadar Abdulmo'min yarim yil o'tmasdanoq o'zi ham boshqa bir dushman zodagonlar guruhi qolida (1599) halok bo'ldi. Taxtni so'nggi Shayboniy hukmdor Pirmuhammadxon egallaydi. Ammo 1601-yili Samarqand hokimi Boqi Muhammad bilan kurashda u yengiladi va taxtdan ag'dariladi. Shu bilan Shayboniylar hukmronligi tugaydi. Ana shu Boqi Muhammad boshqa bir sulola - Ashtarxoniylarga mansub edi. 1601-yildan vatanimiz siyosiy hayotida yangi sulola -Ashtarxoniylar hukmronlik qila boshlaydi. Shu tariqa qariyb yuz yil davom etgan Shayboniylar sulolasi o'zaro qirg'inbarot urushlar va o'zaro nizolar oqibatida qirilib tamom bo'ladi va taxt vorisligiga da'vogar qohnaydi.

X U L O S A

XV-asr oxiri XVI-asr boshida Temuriy mirzolarining o'rtasida boshlanib ketgan o'zaro janjallar taxt uchun kurashlar oqibatida Temuriylar davlati parchalanib ketdi. Natijada shayboniyxon Movoraunnahr xalqlari hayotida muhim o'zgarishlar yasagan Shayboniylar davlatini tashkil qildi. O'zbekiston tarixi darslarida bu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvolni o'rganish va uni o'quvchilar ongiga singdirish maqsadida olib borilgan tadqiqotlar ishida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, Shayboniyxon 1499-1509-yillarda olib borgan yurishlaridan keyin butun Movoraunnahr va Xurosonni qo'lga kiritdi. Shu tariqa katta hududni egallagan Shayboniyxon davlati tashkil topganligi yoritib berildi.

Ikkinchidan, Shayboniylar davrida etnik o'zgarishlar ro'y berib dashti qipchoqdan ko'chib kelgan qabilalar o'zlari bilan "o'zbek" degan etnik nomlarni olib keldilar va butun Movoraunnahr shu nom bilan yuritila boshlanganligi aniqlandi.

Uchinchidan, Shayboniylar davlatida katta qurilish ishlari olib borildi. Shayboniyxon madrasasi, Abdurahm Sadr madrasasi, Baroqxon madrasasi, Masjidi kalon, Mir arab madrasasi, Abdullaxon, Ko'kaldosh kabi madrasalar buni yaqqol misoli sifatida ko'rsatib berildi.

To'rtinchidan, Shayboniylar davrida ilm - fan madaniyat rivojlanib temuriylar qodirgan meros davom ettirildi. Hukmdorlardan Shayboniyxon, Ubaydullaxon kabi shoirlarni xalqimizning ma'naviy merosiga qo'shgan hissasi nihoyatda katta ekanligi dalillar asosida asoslandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: "O'zbekiston", 2011y.
2. Karimov. I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, 1998 yil
3. Karimov.I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. Toshkent, 1994 yil
4. Karimov.I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, 1994 yil
5. Karimov.I.A. Jahon moliyaviy, iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish choralari va tadbirlari Toshkent 2009 yil
6. Karimov.I.A. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsipsiyasi. Toshkent 2010 yil
7. Karimov.I.A. Yuksak manaviyat - yengilmas kuch. Toshkent 2008 yil
8. Ahmedov.B. O'zbekiston tarixi manbalari. Toshkent, 2001 yil
9. Ahmedov.B. Tarixdan saboqlar. Toshkent, 1994 yil
10. Axmedov.B. O'zbek ulusi. Toshkent, 1992 yil
11. Bobur.Z.M. Boburnoma. Toshkent, 1989 yil
12. Fan va turmush jurnali. 2000 – 2006 yillar.
13. Ibrohimov A. va boshqalar. Vatan tuyg'usi. Toshkent, 1996 yil
14. Ibrohimov. A. Bizkim o'zbeklar. Toshkent, 1999 yil
15. Ma'rifat gazetasi. 2000 – 2006 yillar
16. Muhammad Solih. Shayboniynoma. Toshkent, 1988 yil www.google.ru
17. www.ziyonet.uz
18. www.ziyouz.com

Шайбонийлар сулоласи:

Муҳаммад Шайбонийхон (1500—10),
Кўчкунчихон (1510—30),
Абу Саидхон (1530—33),
Убайдуллахон (1533—40),
Абдуллахон I (1540 й. март-сент.),
Абдулазизхон (Бухорода) (1540—50),
Абдуллатифхон (Самарқандда)
(1540—51),
Бароқхон (1551—56),
Пирмуҳаммадхон I (1557—61),
Искандархон (1561—83),
Абдуллахон II (1583—98),
Абдулмўминхон (1598),
Пирмуҳаммадхон II (1598—1601).



Abdullaxon II tomonidan qurdirilgan suv ombori **XVI asr.**



Абдуллахон тими (Бухоро). 16-а.

Abdullaxon Timi (Buxoro) XVI asr.



Buxoro arki XVI asr.